

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIT TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAGISTRATURA BO‘LIMI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK. \_\_\_\_\_

**TOSHQULOVA LOBAR ABDILAZIZ QIZI**

**PIRLS DASTURI ASOSIDA O‘QUVCHILARDA O‘QISH VA MATNNI  
TUSHINISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH**

**70110103-Ta'lim muassasalari boshqaruvi mutaxassisligi bo‘yicha  
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: \_\_\_\_\_ p.f.n ,dots. M.Q.Bozorova

Imzo

**TERMIZ-2024**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI  
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI**

**PEDAGOGIKA VA IJTIMOIIY ISH KAFEDRASI  
TOSHQULOVA LOBAR ABDILAZIZ QIZI**

**PIRLS DASTURI ASOSIDA O‘QUVCHILARDA O‘QISH VA MATNNI  
TUSHINISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH**

**MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI**

**“Himoyaga tavsiya etaman”**

**Ilmiy rahbar: \_\_\_\_\_ p.f.n ,dots. M.Q.Bozorova**

**« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20 \_\_\_\_ yil**

**“Himoyaga ruxsat berildi”**

**Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_ p.f.b.f.d.M.J.Mirzayev**

**« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 20 \_\_\_\_ yil**

*(Titul varag‘ining orqa tomoni)*

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2023 yil 3-martdagi № 6-T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.**

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universiteti rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

**Dissertatsiya manzilining QR-kodi:**



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_)raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)

**Ilmiy rahbar: \_\_\_\_\_ p.f.n ,dots. M.Q.Bozozrova**

**Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_ p.f.b.f.d.(Phd)M.J.Mirzayev**

**Magistratura bo‘limi boshlig‘i \_\_\_\_\_ (PhD) D.H.Abdurahmonov**

**“PIRLS dasturi asosida o‘quvchilarda o‘qish va matnni tushinish  
ko‘nikmalarini rivojlantirish” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi  
ANNOTATSIYASI**

**Tayanch so‘zlar:** PIRLS dasturi, o‘quvchilar, matnni tushinish, rivojlantirish, xalqaro baholash, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, shakl va vositalari, ta‘lim va fan, tushinishga oid ko‘nikmalar, o‘qish savodxonligi.

**Tadqiqot ob‘ektlari:** umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida PIRLS dasturi asosida o‘quvchilarga o‘qish matnni tushunish jarayoni belgilash ko‘nikmalarini rivojlantirish Jarqo‘rg‘on tumanidagi 28-umumta‘lim maktabdan 126 nafar hamda Termiz shahar 11-umumta‘lim maktabidan 130 nafar 3-4 sinf o‘quvchilari ishtirok etib tajriba sinov ishlariga jami 256 nafar respondent jalb qilingan.

**Ishning maqsadi:** O‘quvchilarida PIRLS xalqaro baholash dasturi orqali matnni o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot metodlari:** Tadqiqotda nazariy (analiz, sintez, qiyoslash, solishtirish, umumlashtirish, tasniflash, tizimlashtirish, modellashtirish); umumpsixologik (me‘yoriy hujjatlar va manbalarni o‘rganish, tahlil etish, kuzatish, suhbat, so‘rovnoma, test, faoliyat natijalarini o‘rganish, psixologik metodikalar olib borish suhbatlar, kuzatish anketa – so‘rov maktab hujjatlarini tahlil etish, amaliy tajriba sinovlar o‘tkazilganligi bilan izohlanadi.

**Olingan natijalar va ularning yangiligi:** O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash siyosati samaradorligini oshirish taklifi asoslab berildi; Respublika Markaziy bankining zaxira-vakillik tizimining amal qilishi uzluksizligini ta‘minlashning maqsadga muvofiqligi asoslandi; Markaziy banki tomonidan bir vaqtning o‘zida M2 pul agregati va inflyatsion targetlashdan monetar indikator sifatida foydalanishning maqsadga muvofiqligi asoslab berildi; Markaziy bankning monetar siyosati orqali tijorat banklarining likvidiligi va to‘lovga qobilligini oshirish yo‘nalishlari ishlab chiqildi; Markaziy bankning valyuta siyosati samaradorligini oshirish taklifi asoslandi; O‘zbekiston

Respublikasi Markaziy bankining ochiq bozor siyosatini takomillashtirish yoʻnalishlari asoslab berildi.

**Amaliy ahamiyati:** Tadqiqotning natijalarining amaliy ahamiyati boshlangʻich sinf oʻquvchilarini kitobxonlikka qiziqtirish asosida ulami PIRLS-xalqaro baholash dasturiga tizimli tayyorlash, ularning oʻqish savodxonligi, badiiy va axborotli matnlar mazmunini tushunishni, savodxonligi, darslarini samarali faoliyatini yoʻlga qoʻyishda, ishlab chiqilgan uslubiy tavsiya va koʻrsatmalardan boshlangʻich sinf oʻquvchilarida matn tahlili asosida xulosa chiqarish, ularda nutqiy va lingvistik, adabiy-nutqiy hamda badiiy asarni tahlil qilish koʻnikmalarini shakllantirishda yordamchi vosita sifatida qoʻllash tavsiya etiladi.

**Tatbiq etish darajasi va samaradorligi:** Dissertatsiya ishining asosiy gʻoyasi, uning mazmuni oʻquv-metodik qoʻllanmalar, dars ishlanmalari mazmunini takomillashtirishga xizmat qiladi, boshlangʻich sinf oʻqish darslarida PIRLS dasturi asosida oʻquvchilarda oʻqish va matnni tushinish koʻnikmalarini rivojlantirishga amaliy yordam beradi.

**Qoʻllanish sohasi:** Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining boshlangʻich sinf oʻquvchilari dars jarayonlarida.

**Masters thesis on the topic “development of reading and text comprehension skills in students on the basis of the PIRLS program”**

**Annotation**

**Base words:** PIRLS program, students, text comprehension, Development, International Assessment, elementary students, forms and tools, education and science, comprehension skills, reading literacy.

**Research objects:** on the basis of the PIRLS program in general Secondary Education Schools, students were involved in the experimental test work with the participation of 126 students from the 28th general education school and 130 students from the 11th General Education School of Termez City from the 3rd to 4th grade.

**Purpose of the work:** to develop practical recommendations for the development of the skills of reading and understanding the text through the PIRLS International Assessment Program in its readers.

**Research methods:** theoretical (analysis, synthesis, comparison, comparison, generalization, classification, systematization, modeling) in the study; generalpsychological (study, analysis, observation, Interview, Survey, test, study of the results of activities, conduct psychological methodologies conversations, observation questionnaire – survey analysis of school documents, practical experience is explained by the fact that tests are carried out.

**The results obtained and their novelty:** the proposal of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan to increase refinancing sièsati sama-radorism was substantiated; the validity of the Reserve-representative system of the Mar-kaziy Bank of the Republic was based on the feasibility of ensuring continuity; the feasibility of using M2 monetary aggregate and inflationary targeting as a monetary indicator at the same time by the Central Bank of mam-lakat; Through the monetar sièsat of the Marka-ziy Bank, directions were developed to increase the lik-Vidli and solvency of commercial banks; the proposal of the central bank to increase the efficiency of the currency sièsat was based; the directions of

improvement of the Open Market sièsat of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan were substantiated.

**Practical significance:** practical significance of the results of the study based on the interest of Primary School students in reading ulami PIRLS-systematic preparation for the International Assessment Program, their reading literacy, understanding the content of artistic and informative texts, literacy, establishing effective activities of their classes, drawing conclusions from the developed ushbi recommendations and instructions on the basis of text analysis in, it is recommended to use literary-colloquial and artistic work as an auxiliary tool in the formation of analysis skills.

**Degree and effectiveness of implementation:** the main idea of the dissertation work, the content of which serves to improve the content of educational and methodological manuals, lesson developments, provides practical assistance in the development of reading and text comprehension skills in students on the basis of the PIRLS program in elementary school reading lessons.

**Field of application:** elementary students of General secondary education schools in the course processes.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>9</b>
<b>I BOB. O‘QUVCHILARDA O‘QISH VA MATNNI TUSHINISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....</b>	<b>15</b>
I.1-§. O‘quvchilarda o‘qish va matnni tushinish ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik psixologik mazmuni.....	15
I.2-§. PIRLS xalqaro baholash dasturining ahamiyati, tarixi va uni rivojlantirish .....	26
I.3-§. PIRLS dasturi asosida o‘quvchilarda o‘qish va matnni tushinishga oid ko‘nikmalarini rivojlantirishning mavjud holati tahlili.....	35
Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	45
<b>II BOB. PIRLS DASTURI ASOSIDA O‘QUVCHILARDA O‘QISH VA MATNNI TUSHINISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.....</b>	<b>46</b>
II.1-§ O‘quvchilarida PIRLS dasturi asosida o‘qitishda nutqini rivojlantirishning mazmuni shakl va vositalari.....	46
II.2-§ PIRLS dasturi asosida o‘quvchilarida o‘qish va matnni tushinishga oid ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta‘minoti.....	55
II.3-§ PIRLS dasturi asosida o‘quvchilarda o‘qish va matnni tushinish ko‘nikmalarini rivojlantirishda foydalanishning texnologiyalari usullari.....	64
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	69
<b>III BOB. PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOVNI TASHKIL ETISH VA UNI O‘TKAZISH.....</b>	<b>70</b>
III.1-§. Pedagogik tajriba-sinovning maqsad va vazifalari.....	70
III.2-§. Olingan natijalar tahlili va samaradorligi.....	76
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	85
<b>UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.....</b>	<b>86</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>88</b>
<b>Ilovalar.....</b>	<b>.....</b>

## KIRISH

### **Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va dolzarbligi.**

Jahonda ta'lim sohasi inson faoliyatining eng dolzarb va muhim sohalaridan biri bo'lib, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchiga aylangan. Bugungi kun umumiy o'rta ta'lim tizimi raqobatbardosh, davlat va iqtisodiyotning samarali rivojlanishiga qaratilganligi sababli uslub tizimni modernizatsiya qilish yangi g'oyalarni ishlab chiqishning zamonaviy metod va mexanizmlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu vazifalar uzluksiz ta'lim tizimining nafaqat umumiy o'rta, balki uning har bir bo'g'inini samarali tashkil etilishiga bog'liq bo'lib qoldi. tabiiyki, zamonaviy ta'limning takomillashuvi o'quv materiallari sifatiga ta'sir ko'rsatadigan umumiy o'rta ta'lim maktablari dasturlari mazmuni bilan bog'liq. Chunki aynan maktab yoshida o'quvchilarda mutolaa qobiliyati yangi faoliyat sifatida shakllana boshlaydi.

Dunyo mamlakatlarida turli sohalardagi islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi sababli malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talab yanada oshmoqda. Bu aksariyat xorijiy davlatlarda joriy etilgan ta'lim va fan sohalarini rivojlanishini baholash hamda monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Shuningdek, bugungi kunda yuzaga kelayotgan intellektual olam yangiliklarini anglash, ularga to'g'ri munosabat bildirish hamda yanada yuksak natijalarni qo'lga kiritish uchun xizmat qiluvchi kashfiyotlar qilish uchun ham ta'lim jarayonini yuqori darajaga olib chiqish muhim muammo sanaladi.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining har bir bo'g'inini samarali tashkil etish, ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida sifat va samaradorlikka erishish muhim yo'nalish hisoblanadi<sup>1</sup>. Ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning ilg'or shakllari, yangi pedagogik

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturini tasdiqlash" to'g'risidagi PF-134-son Farmoni 11.05.2022 yil

texnologiyalar, o'qitishning texnik va axborot vositalari joriy etish, ta'lim tashkilotlarida kadrlarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, o'quv dasturlarini takomillashtirish yuzasidan qator vazifalar shular jumlasidandir. Shuningdek, mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi o'zgarishlar hozirgi kun pedagogikasi uchun umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini 2021-yildan boshlab PIRLS, TIMISS, PISA singari xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash va unga muvaffaqiyatli ishtirokni ta'minlash<sup>2</sup> vazifalarini ham qo'ymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-maydagi '2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida' PF-134-son, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-son farmonlari, 2017-yil 13-sentabrda Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" PQ-3271-son, 2019-yil 26-noyabrdagi "Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4537-son, 2019-yil 30-sentabrdagi 'Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish choratadbirlari to'g'risida" PQ-4467-son, 2018-yil 5-sentabrdagi Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ3931-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 'Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida' 997-son qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu, dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning obyekti** umumiy o'rta ta'lim maktablarida PIRLS dasturi asosida o'quvchilarga o'qish matnini tushunish jarayoni belgilash ko'nikmalarini rivojlantirish Jarqo'rg'on tumanidagi 28-umumta'lim maktabdan 126 nafar

---

<sup>2</sup> Jalilov K. - Baholash nazariyasi asoslari (testologiya, pedagogik o'lchovlar) [2020]

hamda Termiz shahar 11-umumta'lim maktabidan 130 nafar 3-4 sinf o'quvchilari ishtirok etib tajriba sinov ishlariga jami 256 nafar respondent jalb qilingan.

**Tadqiqotning predmeti** PIRLS dasturi asosida o'quvchilarda o'qish va matni tushinish ko'nikmalarini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi

**Tadqiqotning maqsadi** O'quvchilarida PIRLS xalqaro baholash dasturi orqali matni o'qish va tushinish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

PIRLIS xalqaro baholash dasturi tariixi va uning pedagogik – psixologik manbalarida yoritilish muammolarini taxliliy o'rganish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini, turli xususiyatga ega bo'lgan badiiy va axborotli matnlar mazmunini anglash ijodiy topshiriqlar asosida rivojlantirish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida matni o'qish va tushinish ko'nikmalarini shakllantirishda samarali bo'lgan hissiy, irodaviy omillar, mazmunan anglash usullarini qo'llashni ilmiy-metodik asoslash;

matni o'qish va tushinish ko'nikmalarini shakllantirish asosida o'quvchilarni badiiy adabiyot mutolaasiga qiziqtirishga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash;

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

manbalar va internet ma'lumotlari orqali magisterlik dissertatsiyasi muammosi aniqlashtirilgan

boshlang'ich sinf o'quvchilarida matni o'qish va tushinish kompetensiyalarini shakllantirish orqali ularda kommunikativ ko'nikmalar (lug'at boyligi)ni rivojlantirishning retrospektiv usullari takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida matni o'qish va tushinishga doir nazariy qarashlar va yondashuvlar, hamda funksiyalar belgilangan, ularning o'ziga xos jihatlari takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka qiziqtirish, ularni PIRLS xalqaro baholash dasturiga tizimli tayyorlash, ularning o'qish savodxonligi, badiiy va axborotli matnlar mazmunini tushunish pedagogik texnologiyalar asosida shakllantirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqilgan;

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili).** XXI asrning dastlabki yillarida xorijda, shujumladan mamlakatimizda ham o'quvchilarning bilish faoliyatini tizimli yondashuv asosida faollashtirish amonaviy didaktikaning yetakchi masalalaridan biri sifatida o'quvchilarda ijodiy tafakkuming rivojlanishi hamda ularda bilish faolligining ta'minlanishiga alohida ta'sir ko'rsatmoqda.

Odamlar o'qishdan to'xtashlari bilan fikrlashdan to'xtaydilar degan edi fransuz faylasufi Deni Didro. Ko'pgina olimlar, psixologlar va o'qituvchilar ko'p yillardan buyon o'qish jarayonining qiziqarli va samarali bo'lishi ustida ish olib borganlar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilimlarni o'zlashtirishning pedagogik va psixologik muammolari chet ellik hamda respublikamiz mutaxassislari tomonidan ko'pgina ilmiy ishlarda yoritilgan.

Respublikamiz pedagog va psixolog olimlaridan Ibragimova M[19] , P.X Jo'rayev[20], B.R. Adizov[14], Safarova R,[29] Sh.O'. Nurullayeva[23]larning tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyati, diqqati hamda fikrlash darajasini faol rivojlantirish masalalari o'rganilgan.

MDH davlatlari olimlari Kichik maktab o'quvchilarining o'qish ko'nikmalarini shakllantirish muammosi Bantova.M.A[15] , Blonskiy P.P[16], Менгликулов Х. А[31], Almazova.I.R[14], Stoylova L.P[30], N.N. Svetlovskaya kabi olimlarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Keyinchalik ular o'qish jarayonini qanday tashkil etish kerakligini, o'quvchilar matn ustida ishlash shakllarini aniqladilar va tavsifladilar.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan matnni idrok etish va tushunish masalalariga bag'ishlangan. Воронин В[41], Лпапъсв Б.Г[49], Rock D. А[58], Pohl. S[63], Rock D.A[66], yozma matn yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish

muammolari Roid G[67], Yamamoto, K[70], Von Davier[69] Yan. D[73]. va boshqalar.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan tahlillardan ma‘lum bo‘ldiki PIRLIS xalqaro baholash dasturi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matni o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishi alohida pedagogik muammo sifatida organilmagnligini bizni shu mavzuda kichik tadqiqot olib borishga undadi

**Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi:** Tadqiqotda nazariy (analiz, sintez, qiyoslash, solishtirish, umumlashtirish, tasniflash, tizimlashtirish, modellashtirish); umumpsixologik (me‘yoriy hujjatlar va manbalarni o‘rganish, tahlil etish, kuzatish, suhbat, so‘rovnoma, test, faoliyat natijalarini o‘rganish, psixologik metodikalar olib borish suhbatlar, kuzatish anketa – so‘rov maktab hujjatlarini tahlil etish, amaliy tajriba sinovlar o‘tkazilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari:** tadqiqot ishi quyidagi ikki bosqichda amalga oshirildi:

Birinchi bosqich (2022-2023 yillar)da dissertatsiya mavzusi yo‘nalishidagi ilmiy-metodik adabiyotlar, mamlakatimizda va xorijda olib borilgan tadqiqot ishlari o‘rganildi, tahlil qilindi. Tadqiqot ishining maqsad-vazifalari va obyekti aniqlashtirildi

Ikkinchi bosqich (2023-2024 yillar)da tajriba-sinov ishlari dasturi ishlab chiqildi; dasturga binoan amaliy tajribaviy faoliyat yo‘lga qo‘yildi; tadqiqot ishining natijalari tahlil qilindi, umumlashtirildi va dissertatsiyani rasmiylashtirish ishlari yakunlandi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matni o‘qish va tushunishni ularni PIRLS — xalqaro baholash dasturiga ishtirokini ta‘minlashning metodologik prinsiplari hamda qoidalarini takomillashtirish bilan belgilanadi.

Tadqiqotning natijalarining amaliy ahamiyati boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kitobxonlikka qiziqtirish asosida ulami PIRLS-xalqaro baholash dasturiga tizimli tayyorlash, ularning o‘qish savodxonligi, badiiy va axborotli

matnlar mazmunini tushunishni, savodxonligi, darslarini samarali faoliyatini yoʻlga qoʻyishda, ishlab chiqilgan uslubiy tavsiya va koʻrsatmalardan boshlangʻich sinf oʻquvchilarida matn tahlili asosida xulosa chiqarish, ularda nutqiy va lingvistik, adabiy-nutqiy hamda badiiy asarni tahlil qilish koʻnikmalarini shakllantirishda yordamchi vosita sifatida qoʻllash tavsiya etiladi.

Dissertatsiya ishining asosiy gʻoyasi, uning mazmuni oʻquv-metodik qoʻllanmalar, dars ishlanmalari mazmunini takomillashtirishga xizmat qiladi, boshlangʻich sinf oʻqish darslarida PIRLS dasturi asosida oʻquvchilarda oʻqish va matnni tushinish koʻnikmalarini rivojlantirishga amaliy yordam beradi.

**Ish tuzilmasining tavsifi.** Ushbu tadqiqot ishi kirish, 3 bob, 8 paragraf, har bir bob boʻyicha xulosa, umumiy xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati qismdan iborat boʻlib, 91 sahifadan iborat.

# **I BOB. O‘QUVCHILARDA O‘QISH VA MATNNI TUSHINISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI**

## **I.1-§. O‘quvchilarda o‘qish va matnni tushinish ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik psixologik mazmuni**

Matnni o‘qish boshlang‘ich sinf yoshdagi o‘quvchilarning aqliy faoliyatida muhim o‘rin tutadi, ular maktabda o‘qish jarayonida o‘qishni o‘zlashtiradilar. Boshlang‘ich sinf yoshdagi o‘quvchilar uchun o‘qish jarayoni murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, ulardan darsda sabr-toqat, e‘tiborli va mehnatsevar bo‘lishni talab qiladi O‘qilgan matnni tushunish so‘zning ma'nosi bilan bog‘liq bo‘lgan tovush shakli asosida sodir bo‘ladi. Bu jihatlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘qishni tushunish u yoki bu ma'lumotni idrok etish xususiyati bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish muammosi yosh o‘quvchining barkamol shaxsini rivojlantirish uchun dolzarb va muhimdir Ta’kidlanganidek, o‘quvchi o‘qish, nutq va yozish texnikasini puxta egallagan bo‘lsa, badiiy o‘qish darslarini yaxshi ko‘rsa, maktabning boshqa fanlarini ham muvaffaqiyatli o‘zlashtiradi. V. Suxomlinskiy ham “O‘qish -bu bolalar dunyoni va o‘zini ko‘radigan oyna” deb ta’kidlagan. Zero, kitobxonlik jarayonida o‘z-o‘zini anglashning o‘sishi, aqliy qobiliyatlarini shakllantirish, axloqiy, vatanparvarlik, estetik jihatdan kamol toptirish amalga oshiriladi. O‘quvchilarda o‘z-o‘zini rivojlantirishga qiziqish, o‘z fikrlarini to‘g‘ri va malakali ifodalash, nutqini rivojlantirish istagi paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘qilayotgan matnning xususiyatlarini hisobga olish kerak Badiiy o‘qish darslarida o‘qish estetik faoliyat sifatida qaralishi kerak, chunki ushbu jarayonda birinchi navbatda badiiy asarlar o‘rganiladi [11, 12].

Kichik yoshdagi o‘quvchilar matndagi semantik ma'noni ajratib ko‘rsatishni va o‘qiganlari asosida o‘z fikrlarini ifodalashni o‘rganishlari kerak. O‘qish ko‘nikmasi murakkab psixofiziologik jarayonlardan biridir. U aqliy va nutqiy faoliyat bilan bog‘liq elementlar va xususiyatlarni o‘zaro bog‘laydi. O‘qish

jarayoni o'quvchining shaxsiy sifatlarini, uning his-tuyg'ularini, idrokini, diqqatini, tasavvurini, qobiliyatlarini, qiziqishlarini, qadriyatlarini o'z ichiga oladi. Atrofdagi dunyo haqida to'plangan bilimlarni rivojlantiradi. O'qish o'quvchida egallagan, kundalik hayot jarayonida to'plangan so'z boyligini, nutq, kundalik, individual va jamoaviy muloqot shakllarini, so'zlardan foydalanishning o'rganilgan modellarini, so'z shakllanishini, matn, jumlar yaratish modellarini faollashtiriladi.

O'qish ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni murakkab, ko'p qirrali jarayondir. Bu, birinchi navbatda, o'qilgan matnning ma'nosini, uning mazmunini anglash qobiliyatini shakllantirish;

to'g'ri o'qish, so'zlarni o'qiganda xatolarga yo'l qo'ymaslik;

ekspressivlik -tinish belgilarini to'g'ri intonatsiya qilish, matnga emotsionallik, jonlilik, sur'at berish, ma'lum bir o'qish tezligi rfi omillarni o'z ichiga oladi [16, 17]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda o'qish jarayoni quyidagi rivojlanish bosqichlariga ega: bo'g'in, bo'g'in+so'z, so'z+bo'g'in. Birinchi bosqichda o'quvchi harfni ko'radi va uni tovushga aylantiradi. Yosh o'quvchi harflarni qanchalik yaxshi bilsa, bir harfdan ikkinchisiga ishonch bilan o'tsa, o'qish jarayoni tezroq davom etadi. O'qishning zaruriy usuli - bu harflarga mos keladigan tovushlarni sekin, izchil talaffuz qilishdir [18]. Boshlang'ich sinf o'quvchisi quyidagi tartibni bajaradi: harfning grafik tasvirini tahlil qiladi, uni tovushga aylantiradi, so'zni tashkil etuvchi bo'g'inlarni ketma-ket o'qiydi, ularni so'z bilan birlashtiradi, uning ma'nosini tushunadi. O'qish ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni quyidagi shartlar bilan tavsiflanadi:

- o'qish ko'nikmalarini shakllantirishda idrok, diqqat, xotira, fikrlash kabi psixologik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur;

—o'qish mahorati ancha tez mustahkamlanadi, shu bilan birga nutq faoliyatining boshqa turlari ham rivojlanganda rivojlanadi tinglash, yozish;

–o‘qish darslari shunday tuzilgan bo‘lishi kerakki darsdagi ishning mazmuni, shakllari va texnologiyalari kichik yoshdagi o‘quvchilarda faqat ijobiy motivatsiyani, o‘qish va kitobga qiziqishni shakllantirishga yordam beradi;

–o‘qish konikmalarini shakllantirishning maqsadi –faqat o‘qish darsining emas, balki boshqa darslarning maqsadlaridan biri sifatida ko‘rish kerak.

O‘qish ko‘nikmasini shakllantirishning dastlabki bosqichlarida o‘qituvchi o‘qish texnikasiga, keyin esa o‘qilgan matnni tushunishga katta ahamiyat berishi kerak. Shunday qilib, o‘qish konikmasi ikkita eng muhim komponentdan iboratdir. Bular: o‘qilgan matnni anglash va tushunishni o‘z ichiga olgan semantik komponent va mohiyati o‘qishning to‘g‘riligi va ifodaliligidan iborat bo‘lgan texnik komponentdir. Boshlang‘ich sinf dasturida sinfdan sinfga bosqichma-bosqich o‘qitish ko‘zda tutilgan bo‘lib, har bir bosqichda o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish o‘qilgan matnning hajmi, to‘g‘riligi, ongliligi, ifodaliligi mezonlari va ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanadi.

O‘qishni o‘rgatishning zamonaviy uslubi o‘qish ko‘nikmasini, o‘qilishi mumkin bo‘lgan matnni ovoz chiqarib aytish, idrok etilayotgan matnning maqsadini tushunish va o‘qilgan matnga shaxsiy munosabatni shakllantirish uchun avtomatlashtirilgan mahorat sifatida belgilaydi. Shu bilan birga, bunday o‘qish faoliyati o‘qilgan matn haqida o‘qishdan oldin, o‘qish paytida va keyin fikr yuritish qobiliyatini ta‘minlaydi. Faqat ana shunday “ongli o‘qish” o‘quvchini o‘qishga, shaxsini rivojlantirishga va kitobning ajoyib olamiga sho‘ng‘ishga yordam beradigan vositadir. Shuning uchun kichik yoshdagi o‘quvchilarda o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish maktabda muvaffaqiyatli o‘qishning muhim omilidir. Biroq buning uchun kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish bo‘yicha tizimli va maqsadli ish olib borish talab etiladi.

Badiiy asarni idrok etishdan oldin tayyorgarlik ishlari bajariladi, ikkinchi sintezdan so‘ng esa o‘qilgan asarga bog‘liq holda ijodiy xarakterdagi ishlar o‘tkaziladi.

O‘qishga tayyorlash va asar ustidagi yakunlovchi ishlari o‘quvchilarning hayotiy tajribasi bilan bog‘lash va bolalarning atrof muhit haqidagi bilimlarini

aniqlash, fikr-mulohazalarini chuqurlashtirish zarur. Agar badiiy asar maqsadga muvofiq tahlil qilinsa, bolalar faollashadi, chunki o'quvchi uchun badiiy asar analizi ijodiy o'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma'lum tasavvurga bog'liq. Haqida ma'lum darajada aniq bilimga ega bo'lishlari zarur. Bu xulosa ko'pgina tadqiqotlar natijasida aniqlanib, maktab tajribasida tasdiqdan o'tgan. Agar o'quvchilarda bunday bilim etarli bo'lmasa, asarni o'qishdan oldin bolalar tasavvurini boyitish va unga aniqlik kiritishga qaratilgan tayyorgarlik ishlari o'tkaziladi.

Asarni idrok etishda unda muallif o'z fikrinigina emas, balki tasavvurini ham aks ettirishi hisobga olinadi. Bolalar asarni aniq, emotsional idrok etishlari uchun-uni ifodali o'qish lozim. Bunda asarni o'qishdan oldin o'tkaziladigan tayyorgarlik mashqlari muhim ahamiyatga ega.

Tayyorgarlik ishlarining vazifasi: a) o'quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishga ta'sir etadigan yangi ma'lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan dalillarni o'quvchilar o'z hayotida kuzatganlari bilan bog'lay olishlariga sharoit yaratish; b) yozuvchining hayoti bilan tanishtirish, yozuvchiga, uning ijodiga qiziqish uyg'otish; v) o'quvchilarni asarni emotsional idrok etishga tayyorlash; g) asar mazmunini tushunishga xalal beradigan so'zlarning leksik ma'nosini tushuntirishdan iboratdir.

Asarni o'qishdan oldin tayyorgarlik mashqlarini o'tkazish-o'tkazmaslik masalasini asarning mazmuni va o'quvchilarning umumiy saviyasini hisobga olib, o'qituvchi hal qiladi.

Tayyorgarlik ishlarini tashkil etish shakllari xilma-xildir. Ulardan qaysi shaklini qo'llash asarning g'oyaviy-mavzu asosiga, o'quvchilarda aniq bilim bor-yo'qligi, maktabning moddiy bazasi va boshqa qator xususiy ishlarga bog'liq. Maktab tajribasida tayyorgarlik ishlarining didaktik shakllaridan ekskursiya, filmlar ko'rsatish, o'qituvchi hikoyasi, suhbat keng qo'llanadi.

Ekskursiya tabiat tasviri haqidagi asarlarni o'qishdan oldin tabiatga ekskursiya qilish o'quvchilar bilimini chuqurlashtiradi, ularda tabiat hodisalarini

kuzatish va aniq tasvirlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Ekskursiya orqali bolalarda tabiatni sevimlik, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga zamin yaratiladi.

Sinfdan sinfga ko'chish bilan yozuvchi hayoti va ijodi haqidagi bolalar bilimi chuqurlashtira boriladi. Asar muallifi bilan tanishtirishga qo'yilgan talablar o'sa boradi. O'qituvchi, epizodik ma'lumot berishdan, yozuvchi hayoti bilan to'liqroq tanishtirishga o'tadi. Bunda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning yoshiga mos imkoniyatlarni, ular yozuvchi bilan qaydarajada tanish ekanligi va uning asarlaridan nimalarni o'qiganligini hisobga oladi.

Ma'lumki, badiiy asarni yaxlit idrok etish muhim bo'lgani uchun maktab tajribasida asar ustida ishlashni shu asarni yoki uning bir darsda o'rganishga mo'ljallangan qismini yaxlit o'qishdan boshlash odat bo'lib qoldi. Hikoya, masal, she'rning mazmunini to'g'ri idrok etish, shuningdek, matnning emotsional ta'sirini oshirish uchun ifodali o'qish katta ahamiyatga ega. Buning uchun asarni o'qituvchi (yoki oldindan tayinlab qo'yilgan o'quvchi) o'qiydi. Bu vaqtda o'quvchilarning kitoblari yopiq bo'ladi. Shuningdek, asarni yaxlit idrok qilish maqsadida magnitofon lentasiga yozuvdan, filmdan foydalanish ham mumkin. Ba'zi matnlarni musiqa sadosi ostida ifodali o'qib berish dam maqsadga muvofiq. Bu asarning ta'sirini kuchaytiradi, o'quvchilarning estetik tomondan rivojlanishiga imkon beradi.

Asar birinchi marta o'qilgandan so'ng o'tkaziladigan suhbat, birinchidan, o'quvchilarga qanday ta'sir etganini bilish, ikkinchidan, bolalarni matnni tahlil qilishga qiziqtirish bilan darsda faol ishlashga sharoit yaratish maqsadini ko'zda tutadi.

Tahlil jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

Tanlab o'qish. Bunda o'quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o'qiydi. Vazifa asarning faktik mazmunini oydinlashtirish, sabab-natija bog'lanishini belgilash, badiiy xususiyatlarini ochish, o'qilgan matnga o'z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo'lishi mumkin.

Matn ustida ishlashda keng tarqalgan ish turlaridan biri berilgan savolga o‘z so‘zi bilan javob berishdir. Mashqning bu turi o‘quvchilarda o‘qilganlar yuzasidan muhokama yuritish ko‘nikmasini o‘stirishga, qatnashuvchi shaxslarni baholashga, muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan asar g‘oyasi o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlashga imkon beradi.

Matnni tasvirlash matn ustida ishlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, undan to‘g‘ri foydalanish esa asarda yozuvchi tasvirlagan hayotiy manzaralarni o‘quvchilar aniq tasavvur qilishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Matn ikki xil tasvirlanadi: 1) so‘z bilan tasvirlash; 2) grafik tasvirlash.

So‘z bilan tasvirlash o‘ziga xos murakkab ish turi bo‘lib, unda manzarani so‘z yordamida aniq qayta tiklash talab qilinadi. So‘z bilan tasvirlash, shuningdek, grafik tasvirlash uchun ham o‘quvchi matnni, undagi voqea sodir bo‘lgan vaziyatni, qatnashuvchi shaxslarning tashqi ko‘rinishini; xarakterli xususiyatlarini yaxshi bilishi zarur; so‘z bilan tasvirlash so‘zni aniq tanlashni talab qilib, o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda foydali vositalardan biri hisoblanadi.

Tasvirlashdan o‘qituvchi turli maqsadlarda, chunonchi, Reja tuzishga asos sifatida, qayta hikoyalashga tayyorlash, voqea yuz bergan sharoitni aniqlash maqsadida foydalanishi mumkin. Tasvirlashdan mustaqil ish sifatida ham foydalaniladi: o‘qituvchi matnning ma’lum qismidan o‘quvchilarga juda ma’qul bo‘lgan-manzarani so‘z bilan yoki grafik tasvirlashni va unga muallif so‘zini tanlashni topshiradi. O‘quvchilar qayta hikoyalashdan oldin so‘z bilan tasvirlash uchun matnni o‘qiydilar, nisbiy tugallangan qismlarni ajratadilar, lavhalarni tartib bilan tasvirlaydilar. Bu muallif nima haqida yozganini ko‘z oldiga keltirishga imkon beradi. Shundan keyin matnni qayta hikoyalash uchun leksik-stilistik tayyorgarlik o‘tkaziladi.

Matnni tasvirlashga o‘rgatishni kitobda berilgan rasmni matnning shu rasmga mos qismiga taqqoslashdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bunda

o'quvchilar yozuvchi tasvirlagan qahramondagi yoki tabiatdagi xarakterli tomonlarni rassom rasmda ko'rsata olganiga ishonch hosil qiladilar.

So'z bilan tasvirlash qayta hikoyalashga aylanib qolmasligi zarur. Buning uchun muallif matnini leksik-stilistik tomondan tahlil qilish manzarani tasvirlashda so'zni aniq tanlashga yordam beradi. Tahlil jarayonida o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini muallif ishlatgan so'z va so'z birikmalariga jalb qiladi. Grafik tasvirlash ko'proq uyda bajariladi. Buning uchun o'quvchilar tasvirlaydigan matn qismini ajratadilar, uni diqqat bilan qayta o'qib, mazmunini o'zlashtiradilar va unga mos rasm chizadilar. Darsda o'quvchilar chizgan rasmlarga qarab tanlab o'qish o'tkaziladi. Matn yuzasidan grafik tasvirlashning murakkabroq turi ekranlashtirish (ekranda ko'rsatishga moslash) hisoblanadi. Bu ijodiy ish bo'lib, rasmlar matnga uyg'unlashtiriladi. Buning uchun asar syujetining rivojlanishiga moslab muayyan izchillikda rasmlar seriyasi yaratiladi. Ekranlashtirishda jamoa bo'lib ishlanadi, kadrlar, ularga mos yozuvlar va musiqa birgalikda tanlanadi.

To'liq qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoyalash, shuningdek, o'qilgan hikoya, maqolaning Rejasini tuzish matn mazmunini, uning tasviriy vositalarini bilib olishga yordam beradi. Asar Rejasini tuzish uning mazmunini ongli va chuqur tushunish uchun xizmat qiladi. Reja matndagi asosiy fikrni ajratishda, voqealarning izchilligini belgilashda, matn qismlarining o'zaro bog'lanishini tushunishda o'quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stiradi, ular matn mazmunan tugallangan qismlarga bo'lishga, har bir qismning asosini topishga, uni qisqa va aniq sarlavha tarzida yoki Reja punkti sifatida shakllantirishga o'rganadilar.

Reja tuzishga tayyorgarlik ishi savod o'rgatish davridanoq boshlanadi. Tayyorgarlik mashqning eng oddiy turi berilgan sarlavhalardan kichik matn mazmuniga mosini topib qo'yish hisoblanadi. O'quvchilar kichik matnga sarlavhani o'zlari topib qo'ya olsalar yana ham yaxshi. Bunday mashqqa o'rgatishda o'qituvchi sarlavha asosiy fikrni ifodalashini ta'kidlaydi, bolalar topgan sarlavhani tahlil qilib, u yoki bu sarlavha nima uchun mos yoki mos

emasligini tushuntiradi. Reja tuzishga tayyorgarlik ishining ikkinchi turi o'qituvchi rahbarligida tanlab o'qish hisoblanadi. Bolalar matndan o'qituvchi bergan savolga javob bo'ladigan o'rinni topib o'qiydilar.

O'quvchilar rasmi Reja tuzishdan logik Reja tuzishga o'tadilar. Logik Reja tuzish quyidagi izchillikda o'rgatiladi:

1. O'qituvchi qismlarga bo'lingan matn tanlab, Rejaini tuzadi va matn Rejasi punktlari o'rnini almashtirib, sarlavha tarzida doskaning chap tomoniga yozib qo'yadi. O'quvchilar matnning birinchi qismni o'qiydilar, shu- qism mazmuniga mos sarlavhani doskadan tanlaydilar, uni o'qituvchi doskaning o'ng tomoniga yozadi; keyin o'quvchilar matnning ikkinchi qismini o'qib, tegishli sarlavhani doskadan tanlaydilar va h.k. Shunday qilib, doskada o'qilgan matnning Rejasi hosil bo'ladi.<sup>3</sup>

2. Matn, qismlarini tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida harakat bir qismdagi asosiy fikrni aniqlaydilar va unga sarlavha topadilar. O'qituvchi sarlavhalarni Reja punkti tarzida doskaga yozib boradi.

3. Qismlarga bo'linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar matn Rejasi tartibida doskaga yoziladi. O'quvchilarga berilgan sarlavhalardan foydalanib matn qismlarga bo'lish topshiriladi. Ular matn o'qiydilar, birinchi sarlavhaga tegishli qismni ajratadilar, keyingi qismlar ham shunday belgilanadi.

4. Qismlarga bo'linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar aralash tarzda doskaga yoziladi. O'quvchilarga yuqoridagi qismlarga bo'lish topshiriladi. O'quvchilar matn o'qib, nisbiy tugallangan qismni ajratadilar va unga mos sarlavhani doskadan tanlaydilar. Ish shu tarzda davom ettirilib, matn Rejasi tuziladi.

O'quvchilar asarni mustaqil ravishda qismlarga bo'lish va harakat bir qismga sarlavha topishga, ya'ni berilgan matn Rejasini tuzishga yuqoridagi kabi asta-sekin o'rgatib boriladi. Reja tuzish uchun so'roq, va darak gaplardan, ayrim hollarda atov gapdan foydalanish mumkin. Faqat har bir Rejada bir turdagi gaplar

---

<sup>3</sup> Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi saytlari. E-mail: markaz@tdi.uz Veb-sayt: <http://www.markaz.tdi.uz/> Telegram: <https://t.me/milliymarkaz>

ishlatilish zarur. Shunday qilib, o‘quvchilarda matn ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantirishda ular diqqati ishning mazmuni va bajarilish yo‘llariga qaratiladi.

5. O‘qituvchilar uchun nashr etilgan “Birinchi sinfda o‘qish darslari”, “Ikkinchi sinfda o‘qish darslari”, “Uchinchi sinfda o‘qish darslari” qo‘llanmalarida mavzularni Rejalashtirishda nimalar hisobga olinganini aniqlang.

6. “O‘qish darslarida bolalarni g‘oyaviy-siyosiy tomondan tarbiyalash” yoki “O‘qish” darslarida o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalash” mavzusida qisqacha og‘zaki axborotga tayyorlaning.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yoshlarni ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etilib, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish bo‘yicha masalan,<sup>4</sup>

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) — boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash;

The Programme for International Student Assessment— (PISA) 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik

---

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.

darajasini baholash kabi ustuvor mezonlarda quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish belgilandi<sup>2</sup>:

PISA - The Programme for International Student Assessment — 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;<sup>5</sup>

TIMSS - Trends in International Mathematics and Science Study — 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash;

PIRLS - Progress in International Reading and Literacy Study — boshlang'ich 4- sinf o'quvchilarining matni o'qish va tushunish darajasini baholash;

TALIS - The Teaching and Learning International Survey — rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish.

Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi, unga ko'ra, masalan, o'quvchilar mustaqil ta'lim olishlari uchun elektron shakldagi ta'limni rivojlantirish, unda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlar bo'yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borishda o'quvlar tashkil etish kabilar belgilangan.<sup>6</sup> Aynan PISA tadqiqoti baholash topshiriqlari to'plamida test topshiriqlari, ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun so'rovnomalar ustida amaliy mashg'ulotlarda malaka oshirish kurs tinglovchilari bilan birgalikda quyidagilarni o'z ichiga olgan ta'lim yo'nalishida misol tariqasida "Falsafaviy kafe" topshirig'i asosida tadqiqot olib borish lozim tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-falsafiy, psixologik-pedagogik adabiyotlar, o'quvmetodik qo'llanmalarni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etish;

---

<sup>5</sup> Результаты международного исследования PISA 2015 (Электрон. ресурс). – режим доступа [http://www.centeroko.ru/pisa15/pisa15\\_res.html](http://www.centeroko.ru/pisa15/pisa15_res.html)

<sup>6</sup> Xodjaev B.X. Umumtalim maktabi Oquvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan-didaktik rivojlantirish. Ped fan dok... diss. - T., 2016.- 315 b

pedagogik kuzatuv; pedagogik tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish; tadqiqot mavzusi bo‘yicha suhbatlar tashkil etish; tadqiqot natijalarini umumlashtirish. to‘plangan tajriba materiallarini tahlil qilish, umumlashtirish va ijodiy yondashish asosida ta’lim muassasalarida dars jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalqaro tadqiqotlar talabi darajasida tayyorlash va uning samaradorligini oshirish yo‘llari belgilanadi.

#### “Falsafaviy kafe” topshirig‘i

Kompyuter texnologiyalari asosida ekranda oshxonada va undagi o‘zaro suhbatlashayotgan xo‘randalar tasviri namoyishi taqdim etiladi, ma’lumotlarni aynan tasvirli rasmlar va u yerda berilgan matnli ilovalar, ko‘rsatilgan saytlar yordamida vazifa shartlarini bajarish lozim. Rasmi tasvirga yuzlanamiz: o‘ng tomonda 3 nafar falsafashunos: Zenon, Konfutsiy va Bentam, xo‘randalar qatorida falsafa fakulteti o‘quvchilari ham joylashgan. Tasvirlarda olimlarning falsafiy qarashlari aks atgan masalalar matni berilib, o‘ng tomonida yechim topishda foydalanish uchun tarmoqdan giperilova qayd etilgan. 1-ssenariy ilovalarida: “Men boshqa odamlar bilan qanday munosabatda bo‘lishim kerak?”, “O‘zimizni qanday tutishimiz lozimligi to‘g‘risidagi g‘oyalar qayerdan chiqdi?”, “Odamlar har doim bir narsalar uchun tortishadi” kabi so‘roqlar ustida minglab yillar bo‘yi o‘ylanib kelgan, - degan fikrlar qayd etilgan. Har bir falsafashunos rasmining ustiga bosilsa, sahifa ochilib, ular haqida qisqacha tarixiy axborot va g‘oyalari mavjud bo‘lgan manbalar aks etadi. O‘quvchilarning ko‘pchiligi falsafa ilmi haqida fuzalolarning nominigina bilishi mumkin, ammo ularning hayoti, qarashlari va g‘oyalari to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lmaydi yoki o‘qish vaqtida qunt bilan yondashmaydi. Shuning uchun tasvirlangan ilovalarda berilgan manbalarning qadimgi zamonga tegishli bo‘lishi va hattoki ayrim qarashlar juda eskirib ketganligi bois ham e’tiborni jalb etishi murakkablik darajasida taqdim etilishi kerak. Tasvirli ma’lumot bo‘yicha topshiriq: “O‘zing uchun xohlamaganingni boshqalarga ham ravo ko‘rma” nomli Konfutsiy ta’limotiga oid matn qayd etilgan saytdan: “Konfutsiy b.z.q.551-479 yillar oralig‘ida yashagan xitoy faylasufi. U uch yoshga to‘lganda otasi vafot etgan, shu sababli onasi bilan

birga kambag'allikni boshidan kechirib, voyga yetadi. Bu Xitoydagi qirg'inbarot suronli va urush zamoni edi. Konfutsiy atrofidagi odamlarning qiynalayotganini ko'rib, buni to'xtatgisi keldi. U mavjud dunyoning tinchligi va rivojlanishini tiladi.

Xulosa sifatida shuni aytib o'tish jozki, PIRLS baxolash dasturi imkoniyat va talablari keng. Bugun dunyo shiddat bilan rivojlanayotgan ekan farzandlarimizni biz ertangi taraqqiyot uchun tarbiyalashimiz zarur. Shunday ekan PIRLS dasturi talablaridan foydalanish eng zaruriy xolat deb xisoblaymiz.

### **I.2-§. PIRLS xalqaro baholash dasturining ahamiyati, tarixi va uni rivojlantirish**

Ma'lumki, o'zgarishlar davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi.

Shuni inobatga olgan holda umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yosh avlodning har tomonlama puxta bilim olishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Shuningdek, Prezidentimiz tashabbuslari bilan 9-sinfni bitirgan o'quvchilar, ota-onalar va o'zlarining xohishlariga binoan, ongli ravishda kasbhunar kolleji, akademik litsey yoki o'zlari ta'lim olgan maktablarda majburiy ta'limni davom ettirishlari mumkin ekanligining belgilab qo'yilishi yoshlarga har tomonlama qulayliklar yaratdi.<sup>7</sup>

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilmoqda bu holat malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabning yanada oshib borishiga turtki bo'lmoqda.

Bunday talabning qondirilishi o'z navbatida yoshlar o'rtasida kitobxonlik va darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishning zamonaviy ijtimoiy innovatsiyalar orqali amalga oshirish ehtiyojini vujudga keltirmoqda.

---

<sup>7</sup> Mirziyoyev SH.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". –T.: "O'zbekiston". – 2017

Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti mutaxassisleri aynan mana shunday talablarning bugungi kun ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligini inobatga olgan holda aksariyat xorijiy davlatlarda ta'limfan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ayrim ilg'or tajribalarni o'rganib chiqdi.<sup>8</sup>

Xususan, dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmokka.<sup>9</sup>

Umuman olganda mamlakatimizda aynan mana shunday xalqaro dasturlarning ta'lim tizimini baholash va monitoring qilishdagi ishtiroki mavjud emasligi yoki o'quvchi yoshlar bilimlari darajasini baholash yoki monitoring qilishning "Milliy dasturi" yaratilmaganligi, hududlar kesimida yoshlar tomonidan u yoki bu fanni o'zlashtirish darajasining sifati va soxada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'lamini belgilab borish va tegishli islohotlar o'tkazish imkoniyatini cheklab qo'ymoqda. Shuningdek, boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi o'qitish darajasining islohotlar tempidan ortda qolayotganligi yaqin kelajakda malakali kadrlar tanqisligini keltirib chiqaradi.

Shuni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni amalga oshirish joiz deb hisoblaymiz:

Xalqaro ta'lim sifatini baholash dasturlarida O'zbekistonning ishtiroki masalasini atroflicha o'rganib chiqish va ushbu dasturlarda ishtirokini ta'minlash;

Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o'quvchi yoshlar bilimlari darajasini baholash yoki monitoring qilishning "Milliy dasturi"ni yaratish;

---

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 4-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-sonli qarori.

<sup>9</sup> PISA-2018 Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari": To'plam – "Axborot-tahlil markazi" AQ. Astana. 2016-126 bet.

Ilm-fan yutuqlarining eng ilg'or natijalari va adabiyotlarning ingliz tilida nashr qilinishini inobatga olgan holda, maktablarda ingliz tilini o'rgatuvchi turli xorijiy dasturlarni tadbiq etish masalasini ko'rib chiqish;

Psixologik testlar yordamida boshlang'ich sinflardagi iste'dodli bolalarni ajratib olib 8-9 yoshlilar uchun har bir maktabda ixtisoslashgan sinflar tashkil etish.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study — xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) — bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o'tkazishga mo'ljallangan bo'lib, uning oxirgi 2016-yilgi tadqiqotlari natijalariga ko'ra Rossiya Federatsiyasi yetakchilik qilmoqda.

Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi butun dunyo bo'ylab ta'limni baholash, tushunish va yaxshilash bo'yicha ish olib boradigan milliy tadqiqot institutlari, tadqiqot agentliklari, olimlar va tahlilchilarning xalqaro hamkoridir. Mazkur notijorat va mustaqil tashkilot tarmog'ida 60 dan ziyod mamlakatlar hamda 100 dan ortiq ta'lim muassasalari ishtirok etmoqda. 1958-yildan buyon IEA o'quvchilarning matematika, tabiiy fanlar hamda o'qish salohiyati bo'yicha savodxonliklarini baholash jarayonida ta'lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar hamda maqbul tavsiyalar yaratishi bilan boshqa xalqaro tashkilotlardan ajralib turadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'zo'zidanmaktab ta'lim tizimini takomillashtirish o'quvchilarning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'limtarbiyaga e'tiborini yuqori darajada kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

PIRLS tadqiqoti (Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matni o'qib tushunish darajasini baholash xalqaro tadqiqoti)ning ilk tarixi 1991-yilga borib taqaladi. Ushbu dastur IEA xalqaro assotsiatsiyasining 1991-yildagi o'qish savodxonligini tadqiq etish dasturiga qo'shimcha holda tashkil etilgan bo'lib, 2001-yildan joriy etila boshlandi. Tadqiqot har besh yilda bir marta o'tkaziladi va 9-10 yosh chegarasidagi o'quvchilarning matni o'qib tushunish darajasini tadqiq etadi. Odatda, bu davrda o'quvchilar o'qish ko'nikmasini hosil qilgan bo'lib, endi bu ko'nikmadan boshqa fanlarni o'rganishda foydalanayotgan bo'ladi. PIRLS xalqaro tadqiqoti o'qish savodxonligini tadqiq etishda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) o'quvchilarning matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash tadqiqotiga (Trends in International Mathematics and Science Study–TIMSS) qo'shimcha tarzda ishlab chiqilgan. PIRLS xalqaro tadqiqoti IEA xalqaro assotsiatsiyasining Boston kollejida olib boriladigan TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazi tomonidan assotsiatsiyaning Amsterdam va Gamburg shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi. O'qish savodxonligining rivojlanishi har bir o'quvchining ta'lim olishi va kundalik hayotida, o'sib-ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etgani bois, o'qish savodxonligini baholashda IEAning qariyb 60 yil mobaynida o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini muntazam ravishda xalqaro miqyosda baholab, ularning o'qib o'rganishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishga harakat qilmoqda. Ushbu assotsiatsiya (IEA) 1960-yillarda ta'lim sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarni xalqaro qiyosiy tahlil qiluvchi hukumat agentliklari va milliy tadqiqot institutlarini birlashtirgan holda tashkil etilgan mustaqil xalqaro tashkilot hisoblanadi. Har bir PIRLS baholash tadqiqoti ota-onalar yoki vasiylar, maktablar, o'qituvchilar, mamlakatlar va o'quvchilar uchun mo'ljallangan qator so'rovnoma hamda ularning o'qib-tushunish darajasini baholashga qaratilgan testlar ko'rinishida tashkil etiladi. O'quvchilarning o'qishni o'rganish va ta'lim olishdagi imkoniyatlarini tadqiq etuvchi so'rovnoma ma'lumotlari erishilgan natijalarni talqin qilish uchun muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. PIRLS 2021

xalqaro tadqiqoti mazkur dastur doirasidagi 2001, 2006, 2011 va 2016-yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarning davomi bo'lib, beshinchi davriylikni boshidan o'tkazdi. Har safar o'tkaziladigan PIRLS tadqiqotida ishtirok etuvchi mamlakatlar soni ortib bormoqda.

PIRLS – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqotining maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta, bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi xodimlar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot boshlang'ich sinflarni tugatgan o'quvchilarning o'qish savodxonligini tekshiradi, chunki boshlang'ich sinflarning oxirgi yili o'quvchilar rivojlanishidagi muhim bosqich hisoblanadi – bu vaqtda o'quvchilar o'qishni shunday o'zlashtirishlari kerakki, u ularning keyingi ta'lim olishlari uchun vosita bo'lishi lozim. Barcha mamlakatlarda maktablarni tanlash mamlakatdagi barcha maktablar ro'yxatidan ehtimollik usuli bilan, ushbu maktabda so'ralgan parallel o'quvchilar sonini hisobga olgan holda, amalga oshiriladi. Tadqiqot jarayonlarini standartlashtirishga katta e'tibor beriladi. PIRLS tadqiqoti xalqaro muvofiqlashtiruvchi markaz tomonidan ishlab chiqilgan yagona ko'rsatmalar va qoidalarga muvofiq ravishda qat'iy olib boriladi. Tadqiqotning har bir bosqichi (namuna olish, tarjima qilish va moslashtirish, test va so'rovnomalar, ma'lumotlarni tekshirish va qayta ishlash) xalqaro ekspertlar tomonidan nazorat qilinadi. PIRLS so'rovi o'quvchilar tomonidan maktab vaqtida va undan tashqarida eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning ikki turini baholaydi:

- o'qishda adabiy tajribani egallash maqsadida o'qish;
- axborotni o'zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o'qish.

Tadqiqotning kontseptual qoidalariga muvofiq, badiiy va axborot (ommabop) matnlarni o'qishda o'qish qobiliyatining to'rtta guruhi baholanadi:

- aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;
- xulosalarni shakllantirish;
- axborotni talqin qilish va umumlashtirish;
- matn mazmuni, lingvistik xususiyatlari va tuzilishini tahlil qilish va baholash.

Bajarilgan ishlarni sifat va miqdoriy baholash uchun PIRLSda quyidagi tizimdan foydalanadi:

- javoblar tanlovi mavjud topshiriqlar 1 ball bilan baholanadi;
- hodisalar ketma-ketligini belgilash bo'yicha topshiriqlar 1 ball bilan baholanadi;
- javobi erkin tuzilgan topshiriqlar topshiriqning murakkabligiga qarab 1 dan 3 ballgacha baholanadi.

Natijalarni yakuniy qayta ishlash uchun zamonaviy test nazariyasi qo'llaniladi. Xalqaro ekspertlarning ta'kidlashicha, PIRLS tadqiqotining natijalari maktab o'quvchilarining o'qish va rivojlanishidagi muvaffaqiyatlarga (maktab va oilaning ta'lim resurslari, ota-onalarning qiziqishi va bolalarning o'qish madaniyatini shakllantirishdagi ishtiroki va boshqalar) ta'sir ko'rsatadigan omillarning regressiv tahlilini ham ta'minlaydi.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi bu boradagi ishlarimizning asosi hisoblanadi. Pirls – turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash dasturi bo'lib, har 5 yilda o'tkaziladi. PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini xalqaro darajada baholaydi. Pirls xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan

tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. PIRLS tadqiqotida o'quvchilarning dars vaqtida va maktabdan tashqari vaqtlarida o'qishini ikki turi baholanadi: - O'quvchining adabiy tajribasini baholash maqsadida o'qish; - Ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o'qish; Pirls boshlang'ich sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratiladi. O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: -diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish; -to'gridan-to'gri xulosa chiqarish; -kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish; -g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish. Pirls bo'yicha rossiya davlati o'quvchilarining yuksak natijalarga erishishdagi o'sish nuqtalarini aniqlashda quyidagi xulosaga kelingan: Har bir sinfda ta'limni differensiyalashga kuchli e'tibor berilishi zarur, bu borada aksariyat birinchi sinf o'quvchilarining muvafaqqiyatli boshlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lmagan maktablarga alohida e'tibor berilishi lozim. Yana ikkita muammolarni yodda tutish kerak: 1) Eng kuchli o'quvchilarga kelgusidagi rivojlanishiga ko'maklashish. 2) O'g'il bolalarga yordam berish, chunki ularning natijalari qizlarning natijalaridan ko'ra yomonroq degan fikrlarni ko'rib chiqib aynan mana shu vazifalarni boshlang'ich sinf o'quvchilarining PIRLSda yuksak yutuqlarga erishishdagi o'sish nuqtalari deb belgilangan. Boshlang'ich ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalar sifatida esa ta'lim jarayonida turli xil matnlardan foydalanishni ta'minlash zarur: yaxlit, yaxlit bo'lmagan, murakkab (ko'plik), turli xil matnlarni o'qish uchun turli strategiyalarni ishlab chiqish, tushunib o'qishni shakllantirish va baholashning turli shakllaridan foydalanish (qog'oz va kompyuter shakllari) kabi vazifalar qo'yilgan. Respublikamizning xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi" xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo'llanmada PIRLS tadqiqoti, uning o'ziga xos xususiyatlari, nazorat-sinov materiallarining ishlab chiqilishi

haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga, PIRLS tadqiqotining topshiriqlaridan, ya'ni matnlar va savollaridan bir nechta namunalar hamda ularning baholash mezonlari keltirilgan. Shuningdek 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha o'tkaziladigan PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish uchun PIRLSda berilgan matnlarning har biriga alohida mashq daftarlari ishlab chiqilgan. Mazkur ish daftari o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish, o'qiganlarini tahlil qilish, talqin qilish hamda to'g'ri xulosa chiqara olish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qo'shimcha didaktik material hisoblanadi. Ushbu daftarni tayyorlashda PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) tadqiqotining ochiq manbalaridan foydalanilgan. O'zbekistonda xalqaro baholash dasturlariga ma'lum reja asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari ham ishtirok etishi o'qituvchilariga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu muhim vazifani amalga oshirish o'qituvchidan ta'limga yangicha yondashuvni va faollikni talab etadi. O'quvchini xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga tayyorlashda o'qish darsi jarayonida darslikda berilgan har bir matn yuzasidan o'quvchi o'zi mustaqil ravishda ushbu matndan kelib chiqib savollar tuzish vazifasi qo'yilsa, har bir bolaning berilgan matnni qay darajada o'zlashtirganligini uning tuzgan savollari orqali bilib olish mumkin. Bunda o'quvchining dunyoqarashi, mustaqil fikrlashi va obrazli tafakkuri har bir dars davomida rivojlantirilib boriladi. Dars jarayonida bola to'g'ri yoki noto'g'ri fikrini tinglab, to'g'ri xulosani hayotiy faktlar orqali chiqarishga o'rganib boradi

Bugun har bir fan o'qituvchisi xalqaro baholash tizimi haqida ma'lumotga ega bo'lishi va o'quvchilarni PISA va PIRLS baholash imtihonlariga tayyorlashi muhim vazifa. PISA nima? Bu 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini belgilash.

PIRLS — 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash. TIMSS — bu 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi sifatida 4-sinf o'quvchilarini xalqaro baholash tizimi PIRLS haqida ko'proq ma'lumot o'rganish maqsadida [www.tdi.uz](http://www.tdi.uz) sayti va [t.me/milliymarkaz](https://t.me/milliymarkaz)

kanaliga ulandim. Matnni o‘qish va tushunishga o‘quvchilarni biz 1-sinf dan o‘rgatamiz. Ularni xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga qanday tayyorlash kerak, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Men bu yo‘nalishda bir qancha ishlarni reja asosida boshladim. O‘qish darslarida internetdan kichik hikoya va ertaklarni olib, 2 xil variantda o‘quvchilarga uyga vazifa qilib berdim. Ertasi kuni hikoya haqida savol-javob o‘tkazdim. “Hikoya nima haqida?”, “Qahramonlar kim?”, “Siz hikoyadan nimani o‘rgandingiz?”, “Sizga qaysi qahramon yoqdi?” kabi savollar bilan ularni imtihon qildim.<sup>10</sup>

“Yomon otliq jazosi” (Abdulla Avloniy). “Bir kishining Qosim ismli bir o‘g‘li bor edi. Ota va onasining so‘ziga kirmasdan har xil yomon ishlarni qilur edi. Bolalar birla urushib, yaqalashib, kiyimlarini yirtib kelur erdi. Uyda onasi mehmon uchun asrab qo‘ygan taomlarini yegon vaqtida, onasi: “— Qosim, o‘g‘lim! Taomni sen yedingmu”, desa “Men yeganim yo‘q, mushuk yegondir”, der edi. Bora-bora otasini pulini ham o‘g‘urlab oladigon bo‘ldi. Otasi bilib, “O‘g‘lim, pulni kim oldi?” desa, “Onam olgandur”, deb onasini o‘g‘ri qilur erdi. Bir kuni otasi ustol ustig‘a bir tanga qo‘yub, o‘zi uxlagan kishi bo‘lib yotdi. Qosim kelib, sekin tangani olib, og‘ziga soldi. Shul vaqt otasi ushlab olmoqchi bo‘lg‘onda tangani yutub yubordi. Tanga borub Qosimning halqumiga tiqilib, jon berdi.

Bolalar, ko‘rdingizmi, yomonning yomonligi o‘z boshiga yetdi.

1. Hikoya kim haqida?

A) Farzand B) Qosim D) Ovqat E) Yomonlik

2. Siz yolg‘on gapirganmisiz?

A) Ha B) Yo‘q D) Ba‘zan E) Bir-ikki marta

3. Qosim otasiga taomni nima yedi deb aytdi?

A) Mushuk B) It D) O‘zi E) Hech narsa demadi

4. Qosim nimani yutib yubordi?

A) Pulni B) Tangani D) Nonni E) Ovqatni

---

<sup>10</sup> PISA-2018 Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari”: To‘plam – “Axborot-tahlil markazi” AQ. Astana. 2016-126 bet.

Matn asosida tuzilgan test savollari orqali o‘quvchining matnni tushunish darajasi va fikrlash va o‘qish malakasi baholanadi.

### **I.3-§. PIRLS dasturi asosida o‘quvchilarda o‘qish va matnni tushinishga oid ko‘nikmalarini rivojlantirishning mavjud holati tahlili**

Yurtimizda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiytadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS xalqaro baholash dasturlari mazmun va mohiyati, Xalqaro baholash dasturlarining standartlarida (Frame Work) qayd etilgan kompetensiyalar, o‘tgan yillarda o‘tkazilgan xalqaro baholash dasturlarida taqdim etilgan topshiriqlar tahlili, xalqaro baholash dasturlarini o‘zida mujassamlashtirgan novatsion metodlari asosida dars ishlanmalarini ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirish kabi masalalarni hal qilishga e’tibor qaratilmoqda.<sup>11</sup>

Mamlakatimizdagi o‘zgarishlar, barqaror rivojlanishning yangi strategik yo‘nalishlari va jamiyatning shaffofligi, uni tezkor axborotlashtirish, intensivlashtirish ta’limga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirdi. Ta’limning yangi modelini joriy etish ta’limni shaxsni rivojlantirish jarayoni sifatida yo‘naltirilgan. Jahon amaliyotiga asoslanib PISA xalqaro tadqiqot dasturi yaratildi.

O‘rta maktabning dastlabki bosqichlarida o‘quvchining ta’lim sifati va ta’limning ijtimoiy ma’nosini tushunishi, jahon ta’lim makoniga to‘liq integratsiyalashuvi xalqaro ta’lim tizimini talab qiladi. 11 yillik ta’limda jahon tajribasini hisobga olgan holda, milliy o‘ziga xoslikni saqlab qolish va natijani

---

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.

to'g'ridan-to'g'ri o'rganish uchun mavzu munosabatlarini tashkil eta oladigan o'qituvchilarni tayyorlashga ustuvor ahamiyat beriladi.<sup>12</sup>

Ta'lim tizimi har doim o'zgarib turadi. Ushbu o'zgarishlarning asosiy maqsadi yosh avlodni har tomonlama rivojlangan, barkamol fuqarolar sifatida tarbiyalashdir. Funktsional savodxonlik ushbu maqsadga erishishga yordam beradi.

Milliy rejaning maqsadi - ta'lim sifatining izchilligi va yaxlitligini ta'minlash, o'quvchilarning olgan bilimlarini hayotga tatbiq eta olish, funktsional savodxonligini rivojlantirish.

Shunday qilib, o'qituvchining bugungi asosiy vazifasi - boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, o'z-o'ziga yordam berish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning har biriga shaxs sifatida qarash va o'zlariga bo'lgan ishonchni oshirish.

PIRLSga o'quvchilarni tayyorlashda o'rganilayotgan obyektlar bilan integratsiyalashgan yondashuv va aloqalar, o'rganishdagi aqliy faoliyatni faollashtirish, vizual in'ikolarni rivojlantirish, xulosalar, qo'shimcha ma'lumotni nafaqat o'quv materiallari bo'yicha, balki kundalik hayotda ham topish muhim ahamiyatga ega. PIRLS tadqiqoti bo'yicha o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. O'qish savodxonligining bu ko'rinishi konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko'plab o'qish nazariyalarini aks ettiradi.

Boshlang'ich sinf bitiruvchi o'quvchilarini PIRLS - baholash tizimi topshiriqlari asosida badiiy asarni tahlil qilishga o'rgatishga harakat qilamiz. Unda 4-sinf o'quvchilariga sinfdan tashqari o'qish darslarini inobatga olib, "Hikmatli boylik" hikoyasini tahlilga tortamiz. Hikoyada ikki kishi sayohat qilib yurib, bir g'orga duch kelishgani, g'orning ichida kumush eshikli xonada bir sandiq kumush tanga, tilla eshikli xonadan ham bir sandiq tilla tanga topishibdi.

---

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi 'O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida'gi PF-5712-sonli farmoni.

Har ikkala sayohatchi choʻntaklarini va qoʻynilarini tilla tangaga toʻldirib olishibdi. Ketmoqchi boʻlib turishganida yogʻoch eshikli xonani ham koʻrib qolibdilar. Bu xonada yogʻoch sandiq ichida toʻla kitoblarni koʻrib, birinchi sayohatchi: “Kitoblarni bunchalik ichkariga yashirishning nima hojati bor edi? Bu sandiq gʻorning ogʻzida tursa ham boʻlar edi” deb orqasiga qaytibdi. Ikkinchi sayohatchi esa: “Bu sandiqning ichkariga yashirilishining bir hikmati boʻlsa kerak”, deb tillalarni toʻkib, kitoblardan koʻtarganicha olibdi. Sherigi uning qilgan ishidan kulib, har ikkalasi oʻz yoʻlida davom etibdi.

Oradan yillar oʻtib, tilla olib kelgan odam boy-badavlat boʻlib ketibdi. Kitob olgan odamning esa bolalari kitoblarni oʻqib, elga tanilgan olimlar boʻlib yetishibdi. Bu paytda esa ikki sayohatchi keksayib qolgan, tilla olib kelgan odamning bolalari otasining boyligini talashib, bir-birlari bilan urushib, har tomonga tarqab, otasini ham unutishibdi. Kitob olib kelgan odamning bolalari esa otasiga minnatdorchilik bildirib, uni qarigan chogʻida parvarish qilishibdi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – Xalqaro oʻqish savodxonligini oʻrganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlangʻich sinfda tahsil oluvchi oʻquvchi yoshlarning matnni oʻqish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. PIRLSda qanday matnlar tanlab olinadi va matnlar uchun qanday mezonlar belgilangan shu masalaga kengroq toʻxtalamiz. PIRLS tadqiqotlarida oʻquvchilar bilimni aniqlash va baholash uchun 2 ta matn yaʼni, badiiy matn va axborotli matn beriladi. Ushbu matnlar asosida eng koʻp qoʻllaniladigan oʻqishning quyidagi ikki turi oʻrganiladi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi oʻqish.
2. Axborotni oʻzlashtirish va undan foydalanish maqsadidagi oʻqish.

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlar uchun quyidagi mezonlar belgilangan:

1. Matn. Hajmi 1000 ta soʻzgacha, oʻqish savodxonligi darajasi past boʻlgan mamlakatlar uchun 400-500 ta soʻz boʻlishi lozim.

2. Mavzu. Adabiy matnlar asosiy mavzuga ega bo‘lib, u berilgan matndan tashqari o‘quvchi tomonidan umumlashtiriladi. Axborotdan iborat bo‘lgan matnlar o‘quv materiallaridan olinmagan mavzuni yoritib berishi kerak.

3. Til. Qismlar 40 dan ortiq tillarga tarjima qilinadi, shuning uchun tarjima qulay bo‘lishi muhimdir. Metafora (taqqoslash) yoki epitet (sifatlash) kabi aniq ifodali tasvirlash so‘zlari tanlanadi. Hech qanday so‘zlashuvga oid leksika yoki sleng (jargon) ishlatilmaydi. Haddan ziyod ortiqcha texnik ifodalar olib tashlanadi.

4. Mazmuni. Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ayrim madaniyatlarga juda xos bo‘lgan mavzulardan chetlanmoq kerak. Matn shu yoshdagi maktab o‘quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo‘lishi kerak. Yaxshi yozilgan va unchalik tanish bo‘lmagan bo‘lishi lozim.

5. Bog‘liqlik va ketma-ketlik. Syujetning mantiqiy tuzilishiga rioya qilish muhimdir. Agar dialog ustunlik qilsa ma’lumotni birlashtirib, murakkab gaplarni qo‘shish kerak. Axborotli matnda matnning strukturasi va ma’lumotning mantiqiy ketma-ketligini sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi vizual elementlar bilan bog‘liqligini kuzatish shartdir. Matn turlari (janrlari) quyidagilardan iborat: – Adabiy tajribani oshirish maqsadida qisqa hikoyalar va badiiy asarlardan parchalar o‘qish (she’rlar bo‘lmasligi kerak); Ma’lumot olish va foydalanish maqsadida ma’lumot beruvchi qo‘llanmalar, broshyuralar, tarjimayi hollar, jurnallar o‘qish. Matn xaritasi PIRLS tadqiqotida matn xaritasi mavjud bo‘lib, u matnning dolzarbligini aniqlashga yordam beradi, masalan, u matnning yetarlicha mazmunli va tushunarligini aniqlaydi. Matndagi muhim g‘oyalarni va ularning o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatadi. Asosiy g‘oyalar, ularning munosabatlarini va matnni yaratish bo‘yicha vazifalarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratadi. PIRLS tadqiqotida matn xaritasi quyidagi turlardan iborat: Adabiy xarita – badiiy asarlarning strukturasi belgilaydi. Janr – masalan: ertak, realistik adabiyot, fantastika va x.k.; Mavzular, syujet, vaziyat, qahramonlar, mualliflik mahorati. Axborot xaritasi – syujetsiz matnlardagi ma’lumotlarni qayd qiladi. Turlar –

masalan: ekspozitsiya, dalil, jarayon va x.k. Asosiy g'oyalar, asosiy g'oyalarning isboti, tashkiliy shakllar, mualliflik mahorati. Adabiy xarita. O'qish savodxonligini tekshirish bo'yicha vazifalar adabiy xarita yordamida beriladi. Bunday vazifalar quyidagi qadamlarda belgilanadi:

1-qadam. Matn haqidagi asosiy ma'lumotni sanab berish (sarlavha, so'zlar soni, o'qish darajasi va janri).

2-qadam. Matnning mavzusini aniqlash va tasvirlab berish.

3-qadam. Vaziyatni aniqlash va ta'riflab berish, asosiy qahramonlarni sanash, ularning ismini, fazilatlarini va vazifalarini yoritish.

4-qadam. Asosiy syujet elementlarini aniqlash, bundan tashqari muammo va ziddiyatlarni yechimini topish.

5-qadam. Asosiy voqealarni va epizodlarni sanab berish.

6-qadam. Yozuvchi tomonidan qo'llanilgan tayanch iboralar va lug'atni, adabiy yoki ritorik uslublarni aniqlash va sanab berish. Savol va topshiriqlarni baholash: Baholash jarayonida "0", "1", "2", "3" ballik tizim hamda "8" va "9" kodlari bilan kodlash tizimi xususida so'z yuritimiz. Matn yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular necha ballik ekanligi haqidagi eslatmalar bilan belgilangan bo'ladi. Ushbu ball va kodlar haqida quyida batafsil ma'lumotlar beriladi. 1. Javobi tanlanadigan savollar (testlar)da to'g'ri javobga "1" ball, noto'g'ri javobga "0" ball beriladi. Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar 2. Ochiq savollarni baholashda 1, 2 va 3 ballik baholash mezonlari qo'llaniladi. O'qish savodxonligining asosi matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o'quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir. Xalqaro PIRLS tadqiqoti eng yaxshi o'quv dasturlari va yosh o'quvchilarning o'qish qobiliyatlarini rivojlantirish tajribasi haqida noyob axborot materiallarini taqdim etadi. PIRLSga qatnashish O'zbekistonga boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida o'qish

qobiliyatlari darajasini mustaqil ravishda obyektiv baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, O‘zbekiston ta’limining ochiqligi va integratsiyalashuvi dunyoning yetakchi ta’lim tizimlarining xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta’minlaydi.

O‘quvchilar matn bilan tanishtirilgach, asarning voqealar rivojini, mazmunini, g‘oyasini, badiiyatini, shaklini va umumiy xulosasini tahlil asosida o‘rganib, bolalarning savodxonlik darajasini aniqlaymiz. O‘quvchilarning matni to‘liq, mazmun va g‘oyasini kengroq ochtirishga, har bir so‘z mohiyatini tushuntirishga, hikoyadan kelib chiqadigan g‘oyani anglatishga va to‘g‘ri xulosa chiqarishlariga yordam berish maqsadida PIRLS test topshiriqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Buning uchun quyidagi test topshiriqlaridan foydalanamiz.

1. “Hikmatli boylik” hikoyasi nima haqida yozilgan?

A.Boylik B.Ilm izlash C.Kitob D.Sayohat

2. Ikki sayohatchi yo‘lda qanday voqealarga duch kelishdi? Hikoya mazmuniga mos keladigan to‘g‘ri fikrlarni aniqlang.

1. Sayohatchilar yo‘lda yovuz jodugarga duch kelishdi.

2. Ular yurib-yurib g‘orga duch kelishdi.

3. G‘orda kumush, tilla, yog‘och eshikli xonalarni ko‘ishdi va uy ichini kuzatishdi.

4. G‘orda sayohatchilarni qirq qaroqchilar tutib olishdi.

5. G‘ordan ko‘pgina tilla va kitoblar olib chiqishdi.

6. G‘ordan faqat kitob topishdi.

7. Ikki sayohatchilar o‘z uylariga ketib, o‘z holicha yashashdi.

A.1,2,4,5.

B.2,3,5,7. C.2,3,6,7 D.1,2,3,5.

3. Kitobni nimaga qiyoslaymiz? A.Oftob, nur, olam. B.Hikmat, soya, dur.

C.Ona, oltin, hikmat.

D.Tanga, ziyo, quyosh.

4. Birinchi sayohatchi boyliklarini nima qildi?

5. Ikkinchi sayohatchining yo'li to'g'rimi?

6. "Kitob" ikkinchi sayohatchiga nima berdi?

7. Hikoya mazmuniga mos keladigan to'g'ri fikrlarni aniqlang. Javoblar jadvaliga "HA" yoki "YO'Q" so'zlarini yozing.

1. Hikoyada ikki sayohatchining hayotini tubdan o'zgarishiga sabab bo'lgan g'orga duch kelishdi va har biri o'z hayot yo'lini tanlaydi.

2. Sayohatchilar g'ordagi kumush, tilla tangalarni egallab boyib ketishadi.

3. Ichkari xonaga yashiringan yog'och sandiqdan eng qimmatbaho boylik "kitoblar" chiqadi.

4. Ikkinchi sayohatchining g'ordan olgan kitoblari unga va farzandlariga baxtsaodat olib keladi hamda ilm dunyosi eshiklarini ochadi.

5. Birinchi sayohatchi butun umriga yetadigan boylikni olib, farovonlikda yashaydi, farzandlarini ham baxtli qiladi.

6. Sayohatchilar umrining oxirida eng hikmatli boylik - kitob ekanligini anglashadi va xatolarini tushunishadi.

1.	2.	3.	4.	5.	6.	
HA	YO'Q	HA	H O A	HA	HA	HA

8. Siz qaysi sayohatchiga o'xshashni xohlaysiz? Nima uchun?

9. Hikoya mazmunidan kelib chiqadgan xulosa qaysi javobda berilgan?

A.Sayohatga chiqib, boylik topib olish va boy-badavlat yashash.

B.Boylik uchun ilmdan voz kechish mumkin. Bu johillik emas.

C.Yoshi ulug‘ bo‘lgan kishilarni hurmat qilish.

D.Ilm uchun boylikdan voz kechish mumkin, chunki ilm egasini boy qiladi.

10. Hikoyadan kelib chiqadigan xulosaga mos keladigan o‘zbek xalq maqollaridan topib yozing? Sinfdan tashqari o‘qish darsida o‘tiladigan bir soat dars davomida o‘quvchilarni matn bilan tanishtirish, uning asosiy mazmun-mohiyatini ochish, hikoyadan to‘g‘ri xulosa chiqarish va uni o‘z hayotida tatbiq qilishga o‘rgatishda yuqorida berilgan topshiriqlarni bajarish katta foyda beradi. Bunday topshiriqlar o‘quvchi bilim faoliyatini kengaytirib, tarbiyalanishiga yordam beradi.

PIRLS tadqiqoti biz uchun innavatsion dastur bo‘lganligi sababli, avvalo maktab darsliklaridagi matnlar bilan ishlash maqsadga muvofiq deb topdik.

### **“Nima eksang, shuni o‘rasan”**

Bir yigit ko‘zlari xiralashgan qari otasini hurmat qilmasdi. Bir kuni chol bechora qo‘li titrab, osh suzib berilgan kosani tushirib sindirdi. Buni ko‘rgan kelini nordon so‘zlar aytib, ko‘nglini vayron qildi. Shundan keyin yigit otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyga ko‘chirdi. Kelin esa eri bergan yog‘och kosada qaynotasiga ovqat bera boshladi. Bu kabi muomaladan otaning ko‘ngli ozor topib, o‘ksinib yig‘lardi. Besh yoshli nevarasi bilangina tasalli topar edi. Bola uning yoniga kelib o‘tirar, ma’sumona so‘zlari bilan kuldirib, qayg‘u-alamlarini yengillatardi. Bola bir kuni qo‘liga pichoq olib, yog‘ochni yo‘nib o‘tirardi. Shu paytda dadasi kelib qoldi. O‘g‘lini ko‘rib: «O‘g‘lim, nima qilyapsan?» – deb so‘radi. O‘g‘li yugurib kelib, dadasini quchoqlab oldi: – Dadajon, siz buvanga yog‘och kosa keltirib bergan edingiz-ku, oyim o‘sha kosada buvanga ovqat beradilar. Men ham yog‘och kosa yasayapman, katta bo‘lganimda oyim bilan sizga shu kosada ovqat beraman. O‘g‘lining bu so‘zi yigitga qattiq ta’sir qildi. U ko‘z yoshi qilib, otasining huzuriga kirdi, tiz cho‘kib uzr so‘radi. Darrov uni issiq xonaga ko‘chirdi. Kelin ham qaynotasini hurmat qila boshladi. Ularning bu ishlaridan ota xursand bo‘ldi.

Topshiriqlar

**1-topshiriq:** “Nima eksang, shuni o‘rasan” jumlasini izohlang.

**Javob:** Bu jumla o‘zbek xalq maqolidir. Bu maqolda nima eksang, ya’ni gul eksang, gul o‘rasan, tikan eksang tikan o‘rasan demoqchi. Yoki yaxshilik qilsang, yaxshilik ko‘rasan, yomonlik qilsang, yomonlik ko‘rasan, desa ham bo‘ladi.

**2-topshiriq:** Rivoyat necha qismdan iborat? Har bir qismning qisqacha mazmunini yozing.

Javob: Rivoyat 4 qismdan iborat.

**3-topshiriq:** Matndagi bolakayga ta’rif bering.

Javob: Boboning nabirasi juda aqlli bola. Endigina besh yoshga kirishiga qaramasdan kelajakni ko‘ra oladi. Ko‘rgan-kechirganlarini to‘g‘ri tahlil qiladi, mustaqil qaror chiqara oladi.

**4-topshiriq:** Bolaning dadasi, otasini hurmat qilmasdan to‘g‘ri ish qildimi? Fikringizga 3 ta isbot keltiring.

Javob: Yo‘q, chunki ota-ona eng buyuk va mo‘tabar zotlardir.

1. Ota-onamiz bizni kichikligimizdan oq yuvib, oq tarab, katta qilishadi.
2. Biz ham yillar o‘tib, keksayganimizda bizga ham xuddi shunday muomala qilishilari mumkin.

**5-topshiriq.** Matnga yana qanday sarlavha qo‘yish mumkin? Asoslang.

1-variant: “Bemehr o‘g‘il” Asos: Chunki, bu matnda otaxonning o‘g‘li bemehr va bag‘ritosh inson.

2-variant: “Mehribon nabira” Asos: Chunki, bu matnda otaxonning nabirasi, mehribon va qalbi toza bola ekan.

3-variant: “Qaytar dunyo” Asos: O‘g‘ilning otasiga qilgan munosabati, o‘z o‘g‘lidan qaytdi.

**6-topshiriq:** Test. 1. Kosani kim tushirib sindirdi?

A) O‘g‘il

B) Chol

D) Kelin

2. Cholga qanday kosada ovqat berishdi?

A) Yog‘och kosada

B) Sopol kosada

D) Chinni kosada

3. Cholni ko‘nglini kim ko‘tardi?

A) O‘g‘li

B) Kelini

D) Nabirasi

**7-topshiriq.** Alisher Navoiyning ota-onalar haqidagi yana qanday misralarini bilasiz?

Javob: Onalarning oyog‘i ostidadur, Ravzai jannat jinon bog‘i. Ravza bog‘in visolin istar ersang, Bo‘l, onalar oyog‘in tuprog‘i.

8-topshiriq: Farzandning ota-onalari oldidagi 5 ta burchini yozing.

Javob: 1. Ota-ona keksayganda ehtiyot qilish, boqish, holidan xabar olish. 2. Ota-ona bemor bo‘lib qolsa davolatish. 3. Ota-onadan norozi bo‘lmaslik. 4. Bir ish boshlashdan oldin ota-onaning ruxsatini, duosini olish. 5. Ota-onaning biror orzu-niyatlari bo‘lsa, uni bajarish.

9-topshiriq: Ota-onaning farzandi oldidagi 5 ta eng muhim vazifasini yozing.

Javob: 1. Farzandiga yaxshi, chiroyli ism qo‘yish.

2. Farzandini ilmli qilish.

3. Farzandini yaxshi xulqli qilib tarbiyalash.

4. Farzandi voyaga yetguncha ehtiyot qilish, boqish, holidan xabar olish.

5. Farzandini uyli, oilali qilish.

## **Birinchi bob bo'yicha xulosa**

Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha 'Yo'l xaritasi' ishlab chiqildi, unga ko'ra, masalan; o'quvchilar mustaqil ta'lim olishlari uchun elektron shakldagi ta'limni rivojlantirish, unda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlar bo'yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borishda o'quvlar tashkil etish kabilar belgilangan.

Natijalarni yakuniy qayta ishlash uchun zamonaviy test nazariyasi qo'llaniladi. Xalqaro ekspertlarning ta'kidlashicha, PIRLS tadqiqotining natijalari maktab o'quvchilarining o'qish va rivojlanishidagi muvaffaqiyatlarga (maktab va oilaning ta'lim resurslari, ota-onalarning qiziqishi va bolalarning o'qish madaniyatini shakllantirishdagi ishtiroki va boshqalar) ta'sir ko'rsatadigan omillarning regressiv tahlilini ham ta'minlaydi.

## **II BOB. PIRLS DASTURI ASOSIDA O‘QUVCHILARDA O‘QISH VA MATNNI TUSHINISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

### **II.1-§ O‘quvchilarida PIRLS dasturi asosida o‘qitishda nutqini rivojlantirishning mazmuni shakl va vositalari**

Mamlakatimizda kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yoshlarga innovatsion, ilg‘or usullar va metodlarni qo‘llab, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta‘lim berish hamda o‘quvchilarning ta‘limdagi sifat samaradorligini oshirish, yoshlarni raqobatbardosh qilib tarbiyalash ta‘lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6- apreldagi ‘Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida’gi 187-sonli qarori, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmonlarida belgilangan qator vazifalar o‘quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin hozirlaydi. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da belgilab berilgan “mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” vazifasi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarining mustaqil fikrlash salohiyatini kengaytirish tub islohotlar zahirida rivojlanayotgan davlatimizda faol, izlanuvchan va zamon bilan hamnafas bo‘lishni taqozo etadi. Shu bois ilm berishda sharq allomalari mustaqil fikrlash, fikrni bayon qilish, nutq tuzish jarayonidagi muhim jihatlarni qamrab oluvchi ilmiy qarashlarini qayd qilganlar va shu bilan bir qatorda, nutqning ilmiy nazariy tomoni lug‘atlarda, darslik va o‘quv va metodik qo‘llanmalarda izoh berib, atroflicha yoritilgan. Forobiyning fikricha, qanday qilib ta‘lim berish va ta‘lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon

etish, qanday so‘rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganda, bu haqdagi ilmlarning eng birinchisi jismlarga, ya’ni substansiya va aksidensiyalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir. Ikkinchisi ilm grammatikadir. U jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishiga va undan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so‘zlarni va nutqni qanday tuzishni o‘rgatadi. Uchinchi ilm mantiqdir. U ma’lum xulosalar keltirib chiqarish uchun mantiqiy figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o‘rgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilinmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to‘g‘ri va nima yolg‘on ekanligi haqida hukm chiqaramiz”. O‘quvchilar nutqida mantiq ilmiga asoslanib fikr-mulohaza bildirish maqsadga muvofiq. Shu bois ular xotirasidagi so‘z zahirasini o‘z nutqi orqali harakatga keltiradi. Nutq va uni o‘stirish tushunchasi. Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar funksiyasini, o‘zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va ta’sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olish qurolidir. Nutq o‘stirish nima? Agar o‘quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda, tilni har tomonlama (talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishini, bog‘lanishli nutqni) aktiv amaliy o‘zlashtirish tushuniladi. Agar o‘qituvchi ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda, o‘quvchilar tilning talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi va bog‘lanishli nutqni muhim aktiv egallashlariga yordam beradigan metod va ish turlarini qo‘llash tushuniladi. Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur.<sup>13</sup>

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo‘lishi kerak. O‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik talabi o‘quvchi o‘z fikrini, nimanidir og‘zaki yoki

---

<sup>13</sup> Ишмухамедов Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида тавлим самарадорлигини ошириш уллари/ рга махсус, касб-хунар талими муассасалари уқитувчиларининг малакасини ошириш ва қайта тайерлаш факультети тингловчилари, академик лицей ва касб-хунар коллежлари ўқитувчилари учун услубий тавсиялар. - Т.: ТДПУ, 2004. 44 б.

yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi,

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi. 3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmasi, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti - nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Fan-texnika tezkor rivojlanayotgan bugungi zamon ta'lim tizimi oldiga ham bir qator vazifalarni qo'yadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi vazifalarning asosiy qismi o'qish darslarida amalga oshiriladi. O'qish va ona tili darslariga qo'yilgan asosiy vazifalar o'quvchilarning nutqini va fikrlash doirasini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish, chiroyli yozish ko'nikmasini shakllantirish hamda savod o'rgatishdan iborat. Har qaysi insonning nutqi aniq va mukammal bo'lsa, shu insonning fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran bo'ladi. Faylasuflardan biri Platon 'Fikrlar dunyoni boshqaradi, degan edi. Darhaqiqat, insonning fikr-maqsadi – uning ongli ishlari va axloqining harakatalantiruvchi kuchidir. Ana shu fikr-maqсадlar nutq vositasida bayon qilinadi.

Nutq nafaqat xayoldagi o'y-fikrlarni bayon qiladi, balki uning shakllanishi uchun ham xizmat qiladi. Fikrlar esa nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirishning sharti fikrni boyitish hisoblanadi. O'quvchilar nutqini o'stirish ularning aqliy faoliyatini rivojlantirish va lug'atini boyitish bilan amalga oshiriladi. Aynan lug'atlar ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, ularning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash maktablarda bolalar nutqini o'stirish jarayoniga qo'yilgan muhim vazifalardandir. Maktablarda lug'at ustida ishlash metodikasi to'rt asosiy yo'nalish bilan belgilangan: O'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, shuningdek, bola lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarni yangi ma'nolarini o'zlashtirish; O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish; Lug'atlarni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq

faoliyatida ishlatmaydigan nafaol lug'atlardagi so'zlarni faol lug'atga o'tkazish; Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nafaol lug'atiga o'tkazish. Hozirgi kunda lug'atlar ustida ishlash uchun maxsus darslar ajratilmaydi. Lug'atlar bilan ishlash, asosan, ona tili va o'qish darslari bilan bog'liq holda olib boriladi. Boshlang'ich sinflar uchun izohli va imlo lug'atlarining ishlab chiqilmaganligi lug'at ustida olib boriladigan ishlarni to'g'ri uyushtirishda ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Agar lug'at ishlari qat'iy bir reja asosida yo'lga qo'yilsa, o'qituvchilardan ham, o'quvchilardan ham ortiqcha mehnat talab qilinmaydi va ko'zlangan natijaga oson erishiladi. Aytaylik, to'rtinchi sinf O'qish kitobi darsligining birinchi bo'limi Istiqbolim – istiqbolim deb nomlangan. Bu bo'lim nima haqida ekanligi tog'risidagi tasavvurga ega bo'lishi uchun o'quvchida ushbu jumla tarkibidagi so'zlar haqida ma'lumot bo'lishi kerak. To'rtinchi bo'limi esa – Ma'naviyat – qalb quyoshi. Bo'lim mavzusidagi 'ma'naviyat' so'zi haqida boshlang'ich sinf o'quvchilarigina emas, ba'zan kattalarning o'zlari ham aniq tushunchaga ega emasligi ko'zga tashlanadi. Shuningdek, o'quvchilar Vatanimiz tarixiga bag'ishlangan mavzularni o'rganish davomida eskirgan qatlamga oid so'zlarga duch keladilar. Bu esa so'zlarning tushunilishi qiyin bo'lganligi sababli o'quvchilarda mazkur yo'nalishdagi asarlarga nisbatan zerikish kayfiyatini paydo qiladi. Bugungi kunda milliy va umuminsoniy ruhda tarbiya topgan, yuksak ma'naviyatga ega, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo'nalishini modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi keng qamrovli vazifalarni hal qila olishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi xalqimiz oldiga qo'ygan ulkan maqsadlarni amalga oshirishda muhim va asosiy vazifa hisoblanad. Shu sababli ham yorqin kelajagimiz uchun munosib xizmat qila oluvchi yetuk kadrlarning yetishib chiqishida ta'lim tizimining har bir yo'nalishi va har bir jabhasiga chuqur e'tibor qaratilmoqda. Zamon talabidan kelib chiqib ta'lim tizimining maqsad va vazifalarini muvaffaqiyat bilan amalga oshirishda boshlang'ich ta'lim vakillaridan sohaga chuqur mas'uliyat bilan yondashish talab qilinmoqda. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi o'quvchining savodini chiqarish

bilan birgalikda ularning nutqini ham, albatta, rivojlantirib borishi zarur. Maktabda o'quvchilar nutqini o'stirish ona tili o'qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o'stirish faqat ona tili va o'qish darslarininggina emas, balki o'quv rejasidagi barcha fanlarning, shuningdek, sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning ham asosiy vazifasidir. Avvalo, bolaga nutq o'stirishdagi asosiy poydevor 1-sinfdan alifbe darslarida qo'yiladi. Tovushlarni aniq talaffuz qilib, bo'g'inlarni birlashtirib so'zning yozuvdagi ifodasini o'qiyotgan o'quvchiga astasekin mustaqil ravishda matnlarni o'qish va uni nutqida ifodalash o'rgatilar ekan, bu nutq o'stirish va savod chiqarish jarayonlarini bir-biri bilan bog'liq holda birgalikda amalga oshirib borishni taqazo etadi. Agar o'quvchilarning savodi mukammal chiqarilasa, ularning diqqati, xotirasi va nutqi kuchli rivojlanadi. Bu xususiyatlar yordamida bolalar narsalarni umumlashtirish, tasniflash, voqeahodisalarning ketma-ketligini idrok qilishni va xulosa chiqarishni o'rganadi. Aynan mana shu yerda bir muhim jihatni aytib o'tishimiz kerakki, o'quvchilarda o'qish savodi yaxshi amalga oshirilmas ekan bu nafaqat bola nutqining mukammal bo'lmasligi, bora-bora boshqa fanlarni o'zlashtirilishida ham salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Ertak, hikoya, yirik she'rlar, ilmiy ma'lumot, umuman olganda, o'quvchi uchun katta hajmdagi matnlarni o'qish birmuncha qiyinlashib boradi, ya'ni matnni o'qish davomida bolaning diqqat kuchi voqelikni tasavvur qilishga emas, qiynalib o'qiyotgan so'zini tushunishga qaratilgan bo'ladi. Bo'g'inlab yoki juda sekin o'qilayotgan so'zning ma'nosini anglaguniga qadar gapning eng avvalidagi so'zni o'quvchi unutib qo'yadi. Unutilgan so'zlarsiz esa gapni yaxlitligicha tasavvur eta olmaydi. Tasavvur eta olmas ekan o'quvchi uchun o'qish jarayoni tushunarsiz va zerikarli bir holatga aylanib boradi. Tabiiyki, bu holatlar o'quvchini bilim olishdan uzoqlashishiga sabab bo'ladi. O'quvchining istiqbolli kelajagiga salbiy ta'sir qiladigan mana shunday holatlarga sabab bo'luvchi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishda o'qituvchilar va otionalardan ta'limtarbiyaga doimiy sinchkov nazorat bilan yondashish talab qilinadi. Ona tili o'qitish metodikasi darsligida nutq o'stirishda quyidagi uch yo'nalish aniq belgilab qo'yilgan;

1. So‘z ustida ishlash;
2. So‘z birikmasi va gap ustida ishlash;
3. Bog‘lanishli nutq ustida ishlash.

Bu yo‘nalishlar parallel ravishda olib boriladi, ya‘ni lug‘at ishi gap uchun material beradi; so‘z, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash bog‘lanishli nutqqa tayyorlaydi. O‘z navbatida, bog‘lanishli hikoya va insho lug‘atni boyitish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Matematika darslarida ham bolalar yangi tasavvur va tushunchalar, juda ko‘p atamalar bilan o‘z nutqini boyitadilar, soda va qo‘shma gap tuzishni o‘rganadilar. Masalan, besh soni uch sonidan katta yoki uch soni besh sonidan kichik; bitta o‘nlikka ikkita o‘nlik va beshta birlikni qo‘shsak, uchta o‘nlik va beshta birlik hosil bo‘ladi. Ona tili darslarida ichki va yozma nutqni rivojlantirish, o‘quvchilar lug‘atini ma‘nodosh, shakldosh, zid ma‘noli so‘zlar bilan boyitish uchun keng imkoniyat mavjud. Grammatikani o‘rganish va o‘qish darslarida o‘quvchilar bajaradigan so‘z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda yordam beradi. Bu darslarda tilni maxsus o‘rganish bilan bolalar alohida tovush, bo‘g‘in, so‘z va gapni eshitishga va talaffuz qilishga o‘rganadilar. Ular narsa va harakatni bildirgan ko‘pgina so‘zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo‘g‘in, so‘z, o‘zak, qo‘shimcha, so‘z turkumi, ot, sifat, son, olmosh, ravish, gap, darak, so‘roq gaplar, gap bo‘laklari singari juda ko‘p yangi atamalar bilan tanishadilar. Oldindan o‘z nutqida ishlatib kelayotgan, nutq ta‘sirchanligini oshiruvchi vositalarni farqlaydi va ularni nutqida to‘g‘ri qo‘llashni o‘rganib boradi. Masalan, 4-sinf ona tili darsligidagi mashqqa e‘tibor qaratsak; ”Quyidagi juftlab berilgan birikmalarni o‘qing. Ma‘nosidagi farqni ayting. Katta bola- kap-katta bola. Yashil qir- yam-yashil qir. Oq ko‘ylak- oppoq ko‘ylak. Tiniq suv- tip-tiniq suv.” Topshiriq muhokama qilingandan so‘ng o‘quvchilar juft so‘zlarning nutq ta‘sirchanligini oshiruvchi vosita ekanligi haqida xulosaga keladilar. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar nutq haqida kengroq tushuncha beruvchi dastlabki ma‘lumotlarni ham 2-sinf ona tili darsligi hamda 3-4-sinf ona tili darsliklaridagi ”Takrorlash” bo‘limiga kiritilgan ”NUTQ.MATN”, ”NUTQ. GAP. SO‘Z” mavzularidan oladilar. Shu paytgacha

o‘y-xayollaridagi fikrlarni yuzaga chiqarishda foydalanayotgan vositasi nutq, shu fikrning qog‘ozga tushirilishi, ya‘ni nutqning yozma shakli matn deyilishini bilib oladilar; ”Nutq-gaplar orqali bildirilgan fikrdir. Nutq gaplardan, gaplar esa so‘zlardan tuziladi”, ”Matnnutqning yozma shakli. Matn- mazmun jihatdan bog‘langan gaplardir. Matn gaplardan tuziladi.” 3-sinf ona tili darsligi. Umuman olganda, boshlang‘ich sinflar uchun alohida izohli va imlo lug‘atlarini tuzib chiqish, lug‘atlar ustida olib boriladigan ishlarning tartibga solinishi o‘quv jarayonlarining sifatini oshiradi, o‘quvchilar uchun o‘rganilishi kerak bo‘lgan bilimlarni egallash birmuncha osonlashadi. Bundan tashqari, kelajak avlodning nutq madaniyatini yuksaltiriladi, milliy tilimizning sehri va jozibasini to‘la his etgan insonlar bo‘lib yetishishi ta‘minlanadi.

Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular: 1. Adabiy til normalarini o‘zlashtirish. 2. Jamiyatimizning har bir a‘zosi uchun zarur bo‘lgan muhim nutq malakalarini, ya‘ni o‘qish va yozish malakalarini o‘zlashtirish. 3. O‘quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish. Nutq o‘stirishda uch yo‘nalish aniq ajratiladi: 1) so‘z ustida ishlash; 2) so‘z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog‘lanishli nutq ustida ishlash. So‘z, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo‘lib leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog‘lanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi. Nutq o‘stirishda izchillik to‘rt shartni, ya‘ni izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil turlarini umumiy maqsadga bo‘ysundirish ko‘nikmasini oshirish bilan ta‘minlanadi. Nutq turlari. Kishilar tildan fikr bayon qilish quroli sifatida foydalanadilar. Ular o‘z fikrlarini ovoz bilan eshittirib bayon qilishdan oldin u haqda o‘ylab oladilar. Bu ichki nutq hisoblanadi. Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan, ‘o‘ylangan’ (fikrlangan) nutqdir. Tashqi nutq tovushlar yordamida eshittirilib yoki grafik belgilar bilan yozilib, boshqalarga qaratilgan nutqdir. Ichki nutq materialni tushunish va yodda saqlashga yordam beradi. Fikrni ifodalash usuliga ko‘ra nutq og‘zaki va yozma bo‘ladi. Og‘zaki nutq ko‘pincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida bo‘ladi. O‘quvchilar nutqiga qo‘yilgan

talablar. O'quvchilar nutqini o'stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi. 1. O'quvchilar nutqi mazmundor bo'lsin 2. Nutqda mantiqiylik bo'lsin. 3. Nutq aniq bo'lsin. 4. Nutq til vositalariga boy bo'lsin. 5. Nutq tushunarli bo'lsin. 6. Nutq ifodali bo'lsin. 7. Nutq to'g'ri bo'lsin. 8. Nutq madaniyatli bo'lsin. Nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vositadir. Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat sistemasini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirish materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga oidini tanlash, joylashtirish, mantiqiy operatsiyalarga katta ahamiyat beriladi. Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli o'sadi. Tushuncha so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, tushuncha til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z (so'z birikmasi) ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo'ladi. Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqini yaratadi. 'Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi'. Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at sostavini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, faktlar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchiniig fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O'quvchining barcha predmetlardan materialni o'zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni bola o'z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaratiladi. Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib

yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi. Uchinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi. O'quvchilar nutqini o'stirishning mashg'ulotning boshqa turlari bilan bog'liqligi. O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi.

Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari bo'yicha to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalap lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni tuzishni o'rgatadi. O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala normalari haqida bilim beradi; bu darsda o'quvchi nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud. Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va aytishga o'rganadilar. Ular predmet, harakat, belgi bildirgan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, o'zak, so'z, so'z yasovchi, forma yasovchi, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, son, fe'l, olmosh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, bosh bo'lak, ikkinchi darajali bo'lak, darak gap, so'roq gap, undov gap; turlanish, bosh kelishik singari juda ko'p yangi terminlarni bilib oladilar<sup>14</sup>. Natijada o'quvchilarda quyidagi: - Turli xil shakl va mazmundagi samarali og'zaki, va yozma va multimediyaga asoslangan muloqotni anglash, boshqarish va ijod qilish; - Turli xil shakllarda va vositalar orqali axborotlarni tahlil etish, baxolash, boshqarish hayrixoh bo'lish; turli xil istiqbollarga e'tibor bilan qarash; - Jamoada ishlay olish va yetakchilik qobiliyatlarini namoyon etish; turli xil rollar va ma'sulyatlarni qabul qila olish; boshqalar bilan birgalikda samarali mehnat qila olish; boshqalarga hayrixoh bo'lish; turli xil istiqbollarga e'tibor bilan qarash kabi hayotiy ko'nikmalarning shakllanishi kafolatlanadi.

---

<sup>14</sup> L.V.Golish, D.M.Fayzullayeva "Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish" Toshkent 2012.

## **II.2-§ PIRLS dasturi asosida o‘quvchilarida o‘qish va matnni tushinishga oid ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta‘minoti**

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini xalqaro mezon va talablar asosida baholash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Respublikamizda ushbu vazifalarni amalga oshirish to‘g‘risida hukumat qarorlarining qabul qilingan bo‘lib, ta‘lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA - International Association for the Evaluation of Educational Achievement) bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan. Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish ta‘lim darajasini obyektiv baholash va uni boshqa mamlakatlar bilan taqqoslash uchun yetarli darajada yordam beradi. Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish esa bevosita ta‘lim sifatini oshirish bilan bog‘liqdir. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) - boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash dasturi bo‘lib, xalqaro baholash yo‘nalishidagi eng nufuzli tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunga qadar PIRLS xalqaro tadqiqoti natijalari asosida ishtirokchi mamlakatlar o‘zlarining ta‘lim tizimida turli o‘zgarishlar, yangi yondashuvlarni amalga oshirib kelmoqda. Aksariyat hollarda bu islohotlar o‘zining ijobiy natijasini berib kelmoqda. 2021-yilning 5-14-aprel kunlari mamlakatimizda 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar o‘tkazildi. 2001-yildan beri har besh yilda bir marotaba o‘tkazib kelinayotgan ushbu tadqiqotlarda mamlakatimiz ilk marotaba, dunyoning 60 dan ortiq davlatlari qatorida ishtirok etdi. Tadqiqotda respublikamizdagi 180 ta maktabda tahsil oluvchi 5948 nafar 4-sinf o‘quvchilari hamda ularning ota onalari, maktab direktorlari va sinf rahbarlari ishtirok etgan bo‘lib, tadqiqotda ishtirok etuvchi maktablar va o‘quvchilar tasodifiylik tamoyillari asosida tanlangan. Bunda maktablardagi ta‘lim tili, shahar yoki qishloqda joylashganligi va o‘quvchilar soni kabi mezonlar ham inobatga olindi. Ma‘lumki, ta‘lim tizimi va maktab dasturi turli mamlakatda bir-biridan farq

qilishi mumkin. Shuning uchun tadqiqot tashkilotchilarining asosiy vazifasi turli mamlakatlardagi natijalarni bir- biri bilan taqqoslash maqsadida ma'lum bir mezonlarni ishlab chiqishdir. Misol uchun, qator mamlakatlarda bolalar maktab ta'limi davrining dastlabki olti yili ichida savodi chiqqa boshlasa, Angliya va Yangi Zelandiyada bu ko'rsatkich besh yilni tashkil etadi, shuning uchun ushbu davlatlarda to'rtinchi sinf emas, balki beshinchi sinf o'quvchilari loyihada ishtirok etadi. Matnni o'qish va tushunish sifatini baholashda o'quvchining o'rtacha yoshi 10,5 yosh deb olinadi, ammo Sharqiy Yevropada maktab ta'limining dastlabki yetti yilida o'quvchilarning savodi chiqadi, shuning uchun ushbu mamlakatlarning o'quvchilari o'rtacha 10,7 -10,9 yoshda tadqiqotda ishtirok etadilar. 2016-yilda o'tkazilgan PIRLS tadqiqoti natijalarini tahlil etadigan bo'lsak, tadqiqotda 50 ta mamlakat va 340 000 dan ortiq o'quvchilar ishtirok etishgan. 2016-yilda o'qish savodxonligi bo'yicha Rossiya va Singapur o'quvchilari tadqiqotda ishtirok etgan 50 ta davlatlar orasida eng yaxshi natijalarni ko'rsatishgan. Tadqiqotda Rossiyaning 42 mintaqasidagi 206 ta ta'lim muassasasining 4577 ta boshlang'ich sinf bitiruvchilari ishtirok etgan bo'lib, mamlakat o'quvchilarining o'qish savodxonligi o'sishida barqaror ijobiy dinamika kuzatilgan. 2011-yildan 2016-yilgacha bo'lgan davrda o'g'il bolalar va qizlarining o'qish savodxonligi natijalaridagi farq kamayganini kuzatish mumkin. 2011-yilda bu 19 ball, 2016-yilda esa 14 ballni tashkil etganini guvohi bo'lamiz. Besh yil mobaynida o'g'il bolalar o'z natijalarini 15 ballga, qizlar esa 10 ballga yaxshilaganlar. Tahlil natijalariga ko'ra oxirgi 15 yil ichida ya'ni, 2001- yildan boshlab, rus boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasi sezilarli darajada oshgan. O'qish savodxonligi past bo'lgan o'quvchilar soni 2001-yildagi 16% dan 2016- yilda 5% gacha kamaygan. Xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko'ra o'qish savodxonligi bo'yicha yuqori natijalarga erishgan davlatlar nafaqat o'qishni turli yo'llar bilan, balki butun ta'lim jarayonini o'zgacha tashkil qilishgani kuzatildi. Mamlakatlar barcha fanlarni o'qitishning umumiy soatiga qarab bir-biridan farq qiladi. Masalan, Singapurda bu ko'rsatkich yiliga 1040 soatni, Finlyandiyada 731 soatni va Rossiyada 4-sinfdagi barcha

fanlarni o‘rganish uchun o‘rtacha 652 soat ajratilgan. Shundan 263 soat ona tilini o‘rganish uchun (41%, barcha mamlakatlar orasida eng yuqori foiz) va o‘qishni o‘rgatish uchun 171 soat (27%) ajratilgan

## 2.2 1-jadval

T/r	Mamlakatlar (o‘rtacha ball)	Yillik umumiy soat (barcha fanlar)	Ona tilini o‘qitish, jumladan o‘qish, yozuv, badiiy adabiyot va boshqa.		O‘qish savodxonligini o‘qitish, jumladan boshqa fanlar tarkibida	
			O‘quv yilidagi soatlar soni	Umumiy soatga nisbatan %larda	O‘quv yilidagi soatlar soni Umumiy soatga nisbatan %larda	Umumiy soatga nisbatan %larda
1	Singapur (576)	1040	278	27	124	12
2	Angliya (559)	993	273	28	125	12
3	Gonkong (569)	987	226	24	128	12
4	Shimoliy Irlandiya (565)	958	257	27	137	14
5	Irlandiya (567)	915	206	23	150	16
6	Tayvan (559)	845	212	26	123	15
7	Norvegiya (559)	827	186	23	134	17
8	Polsha (565)	754	140	19	33	4
9	Finlandiya (566)	731	186	26	122	17
10	Rossiya (566)	652	263	41	171	27
	Xalqaro o‘rtacha	898	242	27	156	18

PIRLS tadqiqotida o‘qishga sarflangan soat va o‘qish savodxonligi ballari o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik aniqlanmagan. Oldingi tadqiqot natijalarining xulosasiga ko‘ra, o‘qish savodxonligini o‘rgatish uchun ko‘p vaqt emas, balki o‘qitish sifati, o‘qituvchining mahorati, darsda qo‘llaniladigan o‘qitish usullari ya’ni dars vaqtidan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda dunyoning barcha mamlakatlarida bo‘lgani kabi o‘quvchilarning o‘qishdagi eng yuqori yutug‘i quyidagi omillar bilan bog‘liq:

□ Oilada bolani tarbiyalash uchun katta miqdordagi resurslarning mavjudligi (kitoblar, o‘qish shartlari, yuqori darajadagi ta’lim va ota-onalarning kasbiy malakasi);

□ Uyda yetarlicha ko‘p elektron qurilmalarga ega bo‘lish;

□ Ota-onalarning o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabati.

Ko‘rainib turibdiki, PIRLS kabi xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishidek muhim vazifani amalga oshirishda o‘qituvchidan ta’limga yangicha yondashuvni va faollikni talab etadi. Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik va xabardorligini aniqlash maqsadida mamlakatimiz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining fikr va mulohazalari o‘rganildi. “Xalqaro baholash dasturlari asosida boshlang‘ich ta’lim sifati baholashning amaldagi mexanizmlarini o‘rganish” mavzusida A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti xodimlari tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnomada 2417 nafar respondent ishtirok etdi. Ishtirokchilarning 56%i PIRLS tadqiqotida mamlakatimiz o‘quvchilari muvaffaqiyatli ishtirok etishlari uchun to‘garaklarda PIRLS tadqiqoti topshiriqlaridan foydalanish lozim deb, 45,6%i fanlarni chuqur o‘qitish lozim deb, 57,4%i esa oilada o‘qish savodxonligini rivojlantirish kerakligini va 54,9%i boshlang‘ich sinflarda o‘qish darsi soatlari hajmini ko‘paytirish kerak degan fikrdalar. O‘quvchilarning o‘qish savodxonligi yuqori bo‘lishi tushunib o‘qishiga bog‘liq deb 80,5% respondent, turli badiiy adabiyotlar o‘qish kerak deb 76,8%i va ifodali o‘qishiga bog‘liq deb 39,8% ishtirokchi javob bergan.

PIRLS - matni o'qish va uni tushunish darajasini aniqlash bo'yicha Xalqaro tadqiqot metodlarining mazmuni. "O'qish savodxonligi" atamasi o'qish tezligini tekshirishni emas, balki "savodli o'qish"ni anglatadi. Unga ko'ra, o'quvchi mantlarni tushunishi, ularning mazmunini mushohada qilishi va baholay olishi, o'z fikrini bayon eta olishi zarur. O'quvchilarga turli matnlar taqdim etiladi: badiiy asarlardan parchalar, biografialar, shaxsiy xatlar, hujjatlar, gazeta va jurnallardagi maqolalar, yo'riqnomalar, reklama e'lonlari, geografik kartalar va b. Ularda axborot turli ko'rinishlarda aks etadi: diagramma, rasm, xarita, jadval, chizma va h.k. PIRLS - bu turli ta'lim tizimiga ega bo'lgan davlatlarda kitobxonlik sifati monitoringini tadqiq qilishdir. Turli davlatlardagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish sifati va matni tushunish darajasini, shuningdek, har xil davlatlar ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni taqqoslash va namoyon qilish imkonini beruvchi tadqiqot metodlaridir. PIRLS tadqiqotlari 2001 yildan boshlab besh yil oralig'ida boshlang'ich ta'lim miqyosida o'takazib kelinmoqda. U xalqaro tadqiqotlar orasida yuqori o'ringa ega. Bu dasturga kiruvchi davlatlarning soni yildan yilga ortib bormoqda. 2001 yildan boshlab 4 marta o'takazildi. Oxirgi PIRLS tadqiqotlari 2016 yilda o'takazildi. Shu davrgacha 35 dan 50 gacha bo'lgan davlatlar ishtirok etishdi. PIRLS tadqiqotlari doirasida turli ta'lim tizimiga ega bo'lgan davlatlarning 4-sinf bituvchilarining o'qish sifati va o'qilgan matni tushunish darajasi o'rganiladi. Bu tadqiqotlarga 4-sinf o'quvchilarining tanlanishi shu bilan e'tiborliki, aynan o'qishning to'rtinchi yilida o'quvchilar o'qishning yuqori darajasiga ega bo'lishi, ularning keyingi ta'limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi. Tadqiqot jarayonida darsda o'quvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning quyidagi ikki turi o'rganiladi:

1. Badiiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish.
2. Mazmuni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o'qish.

Tadqiqotda boshlang'ich sinf bitiruvchilari ishtirok etdi. Aynan shu davrda o'quvchilarning o'qish va matn ustida ishlash malakalari shu darajada rivojlanadiki, bu yuqori sinflardagi ta'limning samarali bo'lishiga zamin yaratadi.

Turli mamalakatlarining maktab dasturlari bir-biridan tubdan farq qilishi hammaga ayon. Shuning uchun turli davlatlardan olingan natijalar o'zaro taqqoslana oladigan darajada bo'lishini ta'minlash bunday tadqiqot o'tkazuvchi tashkilotchilarning muhim vazifalaridan biri. Masalan, ko'pchilik davlatlarda bolalar 6 yoshdan maktabda o'qishni boshlashadi. Ammo Angliya va Yangi Zelandiyada ta'lim 5 yoshdan boshlanadi. Shuning uchun, loyihada 4-sinfdan emas 5-sinfdan o'quvchilar ishtirok etishadi. O'qish va matnni tushunish sifati tekshiriladigan o'quvchilarning yoshi 10,5 yoshni tashkil etadi. Sharq mamlakatlarida bolalar 7 yoshdan o'qishni boshlagani uchun ulardan 10,7-10,9 yoshdagi o'quvchilar tadqiqotda ishtirok etishadi. PIRLS-2001 o'tkazilgan birinchi tadqiqotda Rossiya davlati 35 mamlakatlar ichida 16-o'rinni egallagan. 2017 yilning oxirida PIRLS-2016 yilning oxirgi tadqiqotlar natijasi e'lon qilindi. Unda Rossiya davlati birinchi o'rinni egalladi. 2021 yilda o'tkaziladigan PIRLS xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizdagi 4-sinf o'quvchilari ham ilk marotaba ishtirok etadi. Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016 yillarda o'tkazilgan bo'lib, 2021 yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini xalqaro darajada baholaydi. Mazkur dastur 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro markazi, IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi. Tadqiqotning 2016 yil natijalariga ko'ra, 50 ta mamlakat ichida, Rossiya, Singapur, Gonkong, Irlandiya va Finlyandiya mamlakatlari yuqori natijalarni qayd etgan bo'lsa, shular orasida rossiyalik va singapurlik o'quvchilar matnni o'qish va tushunish bo'yicha eng yuqori natijalarni ko'rsatdi. Shuningdek, Rossiyaning boshlang'ich sinf o'quvchilari ushbu mezon bo'yicha dunyoda yetakchilik qildi. Tadqiqotning 2016 yil natijalariga ko'ra, 50 ta mamlakat ichida, Rossiya, Singapur, Gonkong, Irlandiya va Finlyandiya mamlakatlari yuqori natijalarni qayd etgan bo'lsa, shular orasida rossiyalik va singapurlik o'quvchilar matnni o'qish va tushunish bo'yicha

eng yuqori natijalarni ko'rsatdi. Shuningdek, Rossiyaning boshlang'ich sinf o'quvchilari ushbu mezon bo'yicha dunyoda yetakchilik qildi. PIRLS – Xalqaro baholash dasturi va uni o'tkazishning tashkiliy masalalari. O'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholash barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalarda o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi. PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda. O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, tadqiqotda ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va tahlil qilish maqsadida anketa so'rovnomalari ham o'tkaziladi. Jumladan, o'quvchilar so'rovnomasi orqali ishtirokchi haqida ma'lumotlar, oiladagi ta'limiy resurslar, maktabga, o'qituvchiga, o'quv faniga munosabat, o'quvchilar o'rtasidagi munosabat, o'quv fanlari bo'yicha o'zini baholash, sinfdan tashqari

mashg'ulotlar to'g'risida ma'lumotlar to'planadi. O'qituvchilar so'rovnomasi o'qituvchilar haqidagi ma'lumotlar, maktabning jihozlanishi, xavfsizlik, maktab muhiti, o'qitish usuli, malaka oshirish masalalarini o'z ichiga oladi. Ota-onalar so'rovnomasida ota-onalar haqidagi ma'lumotlar, oiladagi ta'limiy resurslar, farzandini maktabga tayyorlash, maktabga qabul qilinishidan avvalgi ko'nikma va malakalari, ota-onalarning maktabga va o'qishga munosabati o'rganiladi.

### PIRLS topshiriqlari va uni baholash mezonlari

#### 2.2.2-jadval

Ishtirokchi	Oiladagi resurs	Maktab resurs	O'qituvchi resursi	O'quv faniga munosabat	Shaxslar aro munosabat	O'z-o'zini fan bo'yicha baxolash	Sinfdan tashqari mashg'ulotlar
Boshlang'ich sinf o'quvchilari	ot a-onalar haqidagi ma'lumotlar, oiladagi ta'limiy resurslar, farzandini maktabga tayyorlash, maktabga qabul qilinishidan avvalgi ko'nikma va malakalari, ota-onalarning maktabga va o'qishga	maktabning jihozlanishi, xavfsizlik, maktab muhiti,	o'qituvchilar haqidagi ma'lumotlar o'qitish usuli, malaka oshirish masalalarini o'z ichiga oladi	diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish	to'g'rida n-to'g'ri xulosalar chiqarish	kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish	g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish

	munosabati o'rganiladi.						
--	-------------------------	--	--	--	--	--	--

Maktab ma'muriyati so'rovnomasi orqali maktab quvvati, joylashuvi, jihozlanishi, ta'limiy resurslar, maktabda o'quv jarayonining tashkil etilishi, maktab muhiti o'rganilib, tahlil etiladi. PIRLS topshiriqlari va uni baholash mezonlari. PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratiladi. O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish; to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish; kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish; g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish.

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400– 500 ta, PIRLSda esa, taxminan 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi. Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarga mos, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlashgan, shuningdek, qiziqarli hamda o'quvchiga unchalik tanish bo'lmaydi. PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi: Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – O'quvchilar matnни yaxlit o'zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog'liq holda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi. Yuqori daraja (550 ball) – O'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi. O'rta daraja (475 ball) – O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi. Quyi

daraja (400 ball) – O‘quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo‘lgan xabarni ajratib oladi. Tadqiqotda O‘zbekistonning boshlang‘ich sinf bitiruvchilari boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan qanchalik darajada yaxshi o‘qiydi? O‘zbekiston o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi qay darajada? O‘qish 4-sinf o‘quvchilari uchun sevimli mashg‘ulotmi? Oila tomonidan savodxonlikni rivojlantirishga qanday hissa qo‘shilmoqda? Bugungi kunda bizning mamlakatimizda o‘qishni o‘rgatish jarayoni qanday tashkil etilgan? O‘zbekiston o‘qishni o‘rgatish jarayonining boshqa davlatlarga nisbatan o‘ziga xosligi bormi, agar shunday bo‘lsa u nimada namoyon bo‘ladi? Boshlang‘ich sinflarimizning o‘qituvchilari foydalanayotgan metodlar boshqa mamlakat o‘qituvchilari foydalanayotgan metodlardan farq qiladimi? kabi asosiy masalalar o‘rganiladi. Mazkur davlatlarda o‘qish savodxonligi bo‘yicha yuqori natijalar quyidagi omillar bilan bog‘liq: uydagi kitoblar va raqamli qurilmalarning mavjudligi, ziyoli ota-onalar va ularning kitobga bo‘lgan muhabbati, bola maktabga borgunga qadar o‘qish-yozishni o‘rganganligi hamda maktabgacha ta‘lim muassasalariga qamrab olish ko‘rsatkichining yuqoriligi.

### **II.3-§ PIRLS dasturi asosida o‘quvchilarda o‘qish va matnni tushinish ko‘nikmalarini rivojlantirishda foydalanishning texnologiyalari usullari**

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta‘lim- tarbiyaga e‘tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta‘lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta‘lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda qo‘yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to‘g‘risida hukumat qarorining qabul qilinishi <sup>15</sup>Ta‘lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA-International Association for the Evaluation of Educational Achievement) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishini misol sifatida keltirish mumkin. IEA(Talim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi) tashkiloti tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati o‘quvchilarning akademik faoliyatini bir yoki bir nechta fanlardan yoki fanlararo uyg‘unlik asosida baholashni o‘z ichiga oladi, bu esa dunyo bo‘yicha umumiy va har bir mamlakat kesimida ta‘lim jarayonlarini chuqur tahlil qilishga yordam beradi. o‘quvchilarning erishgan yutuqlarini o‘rganishda barcha o‘quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o‘quvchilardan obyektiv testlarni o‘tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, maktab direktorlari, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, hattoki ota-onalardan so‘rovnomalar o‘tkazilib, maktabdagi ta‘lim sifatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar, jumladan, maktab resurslari, o‘quvchilarning ta‘lim olishga oid qarashlari, o‘qitish usullari hamda uy sharoitida o‘quvchilarning bilim olishi qanchalik darajada qo‘llab-quvvatlanayotganligiga doir qimmatli ma‘lumotlar to‘planadi. Ushbu tadqiqotlar yuqori texnik va ilmiy talablar asosida o‘tkaziladi. Shuningdek, o‘rganilayotgan holatlarning xususiyatidan kelib chiqib, amaliy tadqiqotlar bilan birga kuzatuv kabi samarali usullardan ham foydalaniladi.

Ushbu dasturning ko‘p yillar davomida muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotganiga 2021-yilda 20 yil to‘ladi. Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun; Boshqacha qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma‘lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilash uchun ta‘lim sohasidagi davlat siyosatiga oid

---

<sup>15</sup> “Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish – inson kapitalini rivojlantirish omilidir” mavzusidagi xalqaro vebinar. Sidorova Galina Aleksandrovna, Rossiya ta‘lim akademiyasining ta‘limni rivojlantirish strategiyasi instituti, ta‘lim sifatini baholash markazining katta ilmiy xodimi, pedagogika fanlari nomzodi. e-mail: centeroko@mail.ru Veb-sayt www.centeroko.ru

ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir. Shuningdek, PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi. Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Bunga misol sifatida, 2021-yilda o'tkaziladigan tadqiqotda o'quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etishni rejalashtirganini aytish o'rinlidir. Raqamli formatga o'tish bilan birga, internet muhitida boshqariladigan ePIRLS onlayn o'qishni kompyuterda baholash kabi o'zgarishlar ham ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to'g'risida" gi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi" tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish<sup>16</sup> vazifalari belgilangan. PIRLSda O'zbekistonlik boshlang'ich sinf o'quvchilarining yuksak yutuqlarga erishishlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Jamiyatda, o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar orasida o'qish savodxonligi bilan shug'ullanishning qadr-qimmatini tan olinishi, maktabda va oilalarda o'qishga bo'lgan yuqori motivatsiya, maktabgacha tayyorgarlikning

---

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712-sonli farmoni

yaxshi darajasi, otaonalarning o‘qishni o‘rganishga tayyorgarlik ko‘rishdagi ishtiroki, umumiy boshlang‘ich ta‘limning Federal davlat asosiy standartlarida (ФГОС НОО) belgilab qo‘yilgan ta‘lim jarayonidagi prinsipial o‘zgarishlar: “badiiy o‘qish” va metapredmet natijalari bo‘yicha umumiy ta‘limni tashkil etish xulosa natijalarga erishish, boshlang‘ich ta‘limning sifatli dasturlari, darsliklar, o‘qishni o‘rgatishning chuqur o‘ylangan metodikasi, o‘qishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan o‘quvchilar bilan muvaffaqiyatli ishlash kabi omillar PIRLS da boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yuksak yutuqlarga erishishlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida o‘rganilgan .

Har bir sinfda ta‘limni differensiyalashga kuchli e’tibor berilishi zarur, bu borada aksariyat birinchi sinf o‘quvchilarining muvaffaqiyatli boshlash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga ega bo‘lmagan maktablarga alohida e’tibor berilishi lozim. Yana ikkita muammolarni yodda tutish kerak: 1) Eng kuchli o‘quvchilarga kelgusidagi rivojlanishiga ko‘maklashish. 2) O‘g‘il bolalarga yordam berish, chunki ularning natijalari qizlarning natijalaridan ko‘ra yomonroq degan fikrlarni ko‘rib chiqib aynan mana shu vazifalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining PIRLSda yuksak yutuqlarga erishishdagi o‘sish nuqtalari deb belgilangan . Boshlang‘ich ta‘lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalar sifatida esa ta‘lim jarayonida turli xil matnlardan foydalanishni ta‘minlash zarur: yaxlit, yaxlit bo‘lmagan, murakkab (ko‘plik), turli xil matnlarni o‘qish uchun turli strategiyalarni ishlab chiqish, tushunib o‘qishni shakllantirish va baholashning turli shakllaridan foydalanish (qog‘oz va kompyuter shakllari) kabi vazifalar qo‘yilgan.

O‘qish tezligini nazorat qilishdan ko‘ra tushunib o‘qishga urg‘u berish kuzatildi. O‘qish savodxonligi funksional savodxonlikning integrativ komponenti sifatida anglatmoqda. Rossiyada bu davlat hujjatlari darajasida qayd etilgan (FDAS UBT 2009-y.) Matematik, lingvistik, tarixiy, tabiiy-ilmiy va ma’lumotnomalarni o‘qishni o‘rgatishda o‘ziga xoslik ishlab chiqarilmoqda. o‘qish savodxonligini baholashning turli modellari metapredmet natijasi sifatida yaratiladi.

Respublikamizning xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi" xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo'llanmada PIRLS tadqiqoti, uning o'ziga xos xususiyatlari, nazorat-sinov materiallarining ishlab chiqilishi haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga, PIRLS tadqiqotining topshiriqlaridan, ya'ni matnlar va savollaridan bir nechta namunalar hamda ularning baholash mezonlari keltirilgan. Shuningdek 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha o'tkaziladigan PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish uchun PIRLSda berilgan matnlarning har biriga alohida mashq daftarlari ishlab chiqilgan. Mazkur ish daftari o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish, o'qiganlarini tahlil qilish, talqin qilish hamda to'g'ri xulosa chiqara olish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qo'shimcha didaktik material hisoblanadi. Ushbu daftarni tayyorlashda PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) tadqiqotining ochiq manbalaridan foydalanilgan.

Ushbu tadqiqot sinovi har 5 yilda bir marta o'tkazishga mo'ljallangan bo'lib, 2021-yil uchun mo'ljallangan tadqiqotlarda O'zbekistonning boshlang'ich sinf o'quvchilari ham ishtirok etishi o'qituvchilariga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu muhim vazifani amalga oshirish o'qituvchidan ta'limga yangicha yondashuvni va faollikni talab etadi. O'quvchini xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga tayyorlashda o'qish darsi jarayonida darslikda berilgan har bir matn yuzasidan o'quvchi o'zi mustaqil ravishda ushbu matndan kelib chiqib savollar tuzish vazifasi qo'yilsa, har bir bolaning berilgan matnni qay darajada o'zlashtirganligini uning tuzgan savollari orqali bilib olish mumkin. Bunda o'quvchining dunyoqarashi, mustaqil fikrlashi va obrazli tafakkuri har bir dars davomida rivojlantirilib boriladi. Dars jarayonida bola to'g'ri yoki noto'g'ri fikrini tinglab, to'g'ri xulosani hayotiy faktlar orqali chiqarishga o'rganib boradi.

## **Ikkinchi bob bo'yicha xulosa**

Mamlakatimizda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarga innovatsion, ilg'or usullar va metodlarni qo'llab, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta'lim berish hamda o'quvchilarning ta'limdagi sifat samaradorligini oshirish, yoshlarni raqobatbardosh qilib tarbiyalash ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi.

PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi.

Turli mamalatlarning maktab dasturlari bir-biridan tubdan farq qilishi hammaga ayon. Shuning uchun turli davlatlardan olingan natijalar o'zaro taqqoslana oladigan darajada bo'lishini ta'minlash bunday tadqiqot o'tkazuvchi tashkilotchilarning muhim vazifalaridan biridir

